O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA METODIKA VA AXBOROT MARKAZI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

**ZAMIRA SUYUNOVA**

# AN’ANAVIY XONANDALIK

***(Alla – mehr qo‘shig‘i)***

*O‘quv-uslubiy qo‘llanma*

«Musiqa» nashriyoti
Toshkent
2016

**UO‘K 783.1(075)**
**BBK 85.31(5O‘)**
**S 28**

*Mazkur o‘quv-uslubiy qollanma O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Respublika metodika va axborot markazi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (1.07.2016)*

***Mas’ul muharrir:***

**S.M.BEGMATOV** – san’atshunoslik fanlari nomzodi

***Taqrizchilar:***

**R.Q.QOSIMOV** – O‘zDK professori

**N.SATTOROVA** – O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist

**M.KARIMOVA** – O‘zDK dotsenti

Mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanma xalq ijodiyotining yorqin namunalaridan hisoblangan “alla” namunalariga bag‘ishlangan. Unda xalq orasida keng ommalashgan allalar, bastakorlik an’analarida qayta ishlangan va yaratilgan allalar, kompozitorlik ijodida yuzaga kelgan allalar o‘rin olgan. Allalarning yakka va xalqona ijrolaridan toki xor va orkestr jo‘rligida yangraydigan namunalarigacha keltirilgan. Qo‘llanma oliy ta’lim tizimida saboq olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan. Shu bilan birga barcha xonandalar qo‘llanmadan keng foydalanishlari mumkin.

**UO‘K 783.1(075)**
**BBK 85.31(5O‘)**

ISBN 978-9943-307-91-9

© Z.Suyunova, 2016.
© «Musiqa» nashriyoti, 2016

# KIRISH

Bolalar – yurtning kelajagi, elning ko‘zgusi, ajdodlar an’anasining davomchilaridirlar. Yoshlar tarbiyasiga, odob-axloqiga, ta’limiga, kelajagiga katta umidlar bilan boqayotgan, har qanday ibratli saboqni qadrlayotgan, barkamol avlod tarbiyasini shior qilib olgan yurtimizning kelajagi buyukdir. Yurtimizda olib borilayotgan ta’lim sohasidagi barcha islohotlar, yaratilayotgan sharoitlar, manbalar va ijod namunalarining barcha barchasi kelajak avlod uchundir. Ularning sog‘lom, baquvvat, aqlli-idrokli, tug‘ilib o‘sgan yurtini sevadigan, ardoqlaydigan, qalbida muhabbat, vatani, xalqi bilan g‘ururlanadigan fidoiy bo‘lib ulg‘ayishlari uchundir.

Musiqaning sirli dunyosidan o‘rin olgan barcha namunalar har bir inson kamoloti uchun mo‘ljallangan. Ularning yaratilishi ham albatta insonlarning ma’naviy dunyosi uchun xizmat qilish, ma’naviyati va ruhiyatini tarbiyalashdan iboratdir. Shu bois, xalq musiqasi va musiqa ijodiyoti o‘zining janrlarga boyligi bilan o‘z dunyosini namoyon etib keladi. Ularning orasida insoniyatni tabiiy tarzda tarbiyalovchi, ohanglar og‘ushida inson qalbiga muhabbat, saxovat, quvvat, hurmat jo etuvchi namunalar mavjud. Ana shulardan biri “Alla”dir. Dunyo onalarining qalb nidolari hisoblanmish ushbu janr butun dunyoda o‘zining ahamiyatli o‘rniga egadir. Ularning nomlanishlari o‘ziga xos o‘zgacha bo‘lganligi bilan zaminidagi maqsadi bir.

Yurtboshimizning “Ona allasi faqat chaqaloqning orom olishi uchungina aytilmaydi, balki uning vositasida bolaning ko‘ngil dunyosiga milliy ruh kiradi. Ona tilidagi mehr-muhabbat, nasliy tuyg‘ular va orzular go‘dakning jismu jonida ildiz qoldiradi”[1] – deb tahkidlashlarining o‘zida ham, allaning asl mohiyati va uning insoniyat tarbiyasidagi behisob ahamiyati ehtirof etilmoqda .

Allalarni xalq orasida keng ommalashgan namunalarini risola ko‘rinishida xalqimizga taqdim etgan Munavvara Yoqubova o‘zining “Allalarda oilaning oppoq orzusi” risolasida yozadi: - “...chaqaloq dunyoga kelishi bilan uni suyish va erkalash, ardoqlab orom oldirish, eng yaqin kishilari, makoni va zamoni bilan tanishtirish uchun odatiy qo‘shiq – alla kuylanadi... Alla qo‘shig‘i ijro etilayotganda esa sokin kuy, quyma satrlar, onaning malohatli harakatlari, erkalovchi qo‘llari, hissiyotga to‘la ovozi, mehribon nigohi bir butun holda jamlanib, muqaddas qudrat kasb etuvchi mo‘’jizaga aylangandek bo‘ladi.”[2] Bu jarayonlarning barchasi alla qo‘shig‘ining ohanglarida mujassam topganligi sababli allalar har tomonlama ardoqlanib kelinadi. “Murg‘ak go‘dak ulg‘aya borgan sayin unga aytiladigan qo‘shiqning mavzusi ham kengaya boradi.

[1] Islom Karimovning “Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida” T.6, “O‘zbekiston”, T., 1998. 401-b.
[2] M. Yoqubova. “Allalarda oilaning oppoq orzusi”, T., 2009 y. 11-b.

Bolasining o‘sib- o‘nishi, o‘z hayot yo‘lini topishi, el-yurt, qavmu-qarindoshiga ma’qul keladigan komil inson bo‘lib yetishishi onaning eng ezgu tilagi. Erkalash allalariga bolani tarbiyalovchi, uni ma’naviy kamolot sari yetaklovchi allalar qo‘shilib boradi.”[3] Xalq allalari ijodkorlar amallarida ham o‘z aksini topib, turli mavzularda boyib boraveradi.

Vatanimizning mustaqillik davrida xalq musiqa merosi va ayniqsa, mumtoz musiqa merosiga alohida e’tibor qaratilishi ham millatning ma’naviy dunyosini har tomonlama tarbiyasi uchun qilinayotgan amallar hisoblanadi. Ayniqsa yoshlar tarbiyasi, ularni barkamol avlod qabilida tarbiyalash – ta’limning asosiy g‘oyasi ekanligini e’tiborga olib, yoshlar qalbini ezgu amallar bilan boyitish uchun allalarga murojaat etdik. Asosiy maqsad va eng muhimi, nafaqat yoshlarning ruhiy kamoloti uchun xizmat qiladigan musiqiy an’analardan hisoblangan alla janri bilan talabalarni tanishtirish, balki allalarning xalq ijodiyotidagi o‘rni, ushbu janrga xalq bastakorlari va kompozitorlarining munosabatlari, ular yaratgan asarlardan namunalar keltirib, kelajak avlod va bo‘lajak musiqa namoyandalarimiz bo‘lmish talabalarning ta’lim jarayonida allalarning asl mohiyatini anglashlari, ularnini zamonamizga munosib farzand etib tarbiyalash va kerakli bilimlarga ega bo‘lishlari.

Yuqoridagilarni inobatga olib ushbu o‘quv qo‘llanmada xalq ijodiyotining ajralmas qismini tashkil etuvchi alla janriga mansub nazariy ma’lumotlar, xalq, bastakor va kompozitorlar ijodidan namunalar ta’lim jarayoniga tavsiya etilmoqda.

Odatda musiqa ijrochiligi talqin bilan bog‘liqdir. Talqin esa tafakkur bilan uyg‘un bo‘lishi lozim. Har bir xonandaning o‘z talqini mavjud. Har bir musiqiy janrning ham o‘ziga xoslik talqin yo‘llari mavjud. Maqom san’atida asar ijrochiga oz bo‘lsada tanish yoki ma’lum bo‘lmasa uni notadan ko‘rib ijro etishi qiyin. Lekin, ijrochi asarni tinglagan bo‘lsa, uni shu ohangdan adashmagan holda ijro etadi.

Allalar ham xuddi shundaydir. Har bir allaning o‘z xarakteri mavjud. Bu allaning matnidan, ohangidan vaziyatan, holatdan kelib chiqadi. Demak, ushbu kitobdagi alla namunalarini notadan to‘g‘ri o‘qib, kuylash uchun xonanda alla ijrochiligida muayyan malakaga ega bo‘lishi lozim bo‘ladi. Xalq allalarini ijro etish uncha mushkul emasdek tuyuladi, ammo ularning ham o‘z xususiyatlarini namoyon etish o‘ta muhimdir. Bastakorlarimiz yaratgan allalar va kompozitorlarimiz yaratgan allalar professionalligi, milliylik bilan sug‘orilganligi, diapozonining va ko‘lamining kengligi bilan xalq allalaridan ajralib turadi. Ularni ijro etish uchun ham o‘ziga xos munosabat zarur. Ya’ni, xonanda bu allalarni maromiga etkazib ijro etishi uchun unda etarli malaka bo‘lishi lozim. Ta’lim jarayonida allalarni o‘zlashtirish talabalar uchun musiqa talqinini ko‘p jihatlar bilan boyitish demakdir.

---

[3] O‘sha manba. 12-b.

## XALQ ALLALARI

"Alla o'zi nima?" degan savol ko'pchilikni o'ylantirib kelgan. Alla – bu insoniyatning kamoloti uchun xizmat qiluvchi vosita. U so'z, ohang, harakat uyg'unligida amalga oshiriladigan xalq ijodining namunasidir. SHarqning buyuk allomalari va mutafakkirlari ham alla xususida o'z fikrlarini bayon etib o'tganlar. Ular o'z risolalarida allalarning inson mahnaviy dunyosi uchun naqadar ahamiyatli ekanligiga ishora qilganlar. Shulardan biri - buyuk hakim Abu Ali Ibn Sinodir. Ibn Sino o'zining "Tib qonunlari" risolasida alla xususida to'xtalib o'tadi va uning xususiyatlari haqida ma'lumotlar bayon etadi. Xususan, "Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi uni uxlatish uchun odat bo'lgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab, bolaning tanasi bilan badantarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil bo'ladi."[4] Darhaqiqat, bularning birinchisi bolani jismonan sog'lom va baquvvat bo'lib o'sishiga yordam bersa, ikkinchisi uni ma'nan kamol topishiga xizmat qiladi. XX asrning ko'zga ko'ringan, atoqli shoirlaridan biri Rasul Gamzatov "Agar onalarning allasi bo'lmaganida edi, jahon she'riyati yaralmagan bo'lardi. Yaralganda ham bugungidek jozibali bo'lmas edi" – degan fikrni bayon etgan.

Insonlar alla tinglaganlarida uning ohanglarida allaning beg'uborligi, yoqimliligi, hayotbaxshlilik jihatlari mavjud ekanligini doimo his etib kelganlar. Bu musiqa shunday mo'jizaki, uning insonni go'daklik chog'laridagi hayotining har bir lahzasi uchun, davri uchun, kayfiyati uchun mos keladigan namunalari bor. Alla ana shu ulkan dunyoning ilk qo'shig'i, kelgusida yaratilajak asarlarga ilhom beruvchi ummon kabidir. Alla musiqa nazariyasi qonuniyatlarning barchasiga ham to'la rioya qilmaydigan, lekin o'zining muayyan shaklu - shamoyiliga bo'ysunadigan, falsafiy ma'nolarni o'z tarkibiga qamrab oladigan, oddiy, sodda, lekin ko'pmazmunli musiqiy shakldir.

Alla xususida bir qator filolog olimlar o'z fikrlarini bayon etganlar. Ular nafaqat ona allasining so'zlari va so'z ma'nolariga katta e'tibor qaratganlar, balki allaning ohanglari ham o'ziga xosligi, ma'nolarga boyligi, keng qamrovliligi, xususiyatlarga boyligi bilan boshqa musiqiy shakllardan ajralib turishini ta'kidlaydilar. Uning muayyan ohangida alla muhrlangan. Uni tinglaganning o'zida alla ekanligini tushunish mushkul emas. Biz ushbu risolada allaning ohang mag'zini tushunishga harakat qilib ko'ramiz.

Alla eng avvalo xalq ijodiyotining mahsulidir. Xalq og'zaki an'analarida yuzaga kelgan ushbu musiqiy shakl o'zining soddaligi va shu bilan birga keng ko'lamligi bilan boshqa janrlardan ajralib turadi. Alla janri xususida

[4] Abu Ali Ibn Sino, "Tib qonunlari", birinchi kitob, T., 1969. 176-b.

musiqashunos olim Fayzulla Karomatov shunday yozadi: “O‘ziga xos intonatsion-melodik negiz va ayni vaqtda ma’lum metro-ritmik erkinlik, kuyning ma’lum darajadagi improvizatsion rivoji bilan xarakterlanuvchi beshik qo‘shiqlari – “Alla”lar ham o‘zbek fol’klorida, boshqa xalqlardagidek, juda keng ishlatiladi. O‘z metro-ritmik asosi tarkibga solingan hamma qo‘shiqsimon kuyga ega bo‘lgan “Alla”lar turi esa, odatda, o‘z funktsiyalaridan tashqari vaziyatda, yana sahna asarlarida ishlatilganda yoki estradalarda tanqidiy yoki taqlidiy she’rlar bilan ijro etilganda uchraydi. Bunday qo‘shiqlar ko‘pincha xalq professional ashulachilari ijrosida “Alla” nomi bilan yuritilsa-da, ular o‘z bajarayotgan funktsiyasiga binoan ikkinchi guruh janrlari, ya’ni har qanday sharoitda va har qanday vaqtda ijro etiladiganlar turiga taalluqli bo‘lib qoladi.”[5]

Alla, o‘zbek xalq musiqa ijodiyotining yorqin namunasi sifatida muayyan janrni to‘liq ifoda etmasa-da, alla qo‘shiqlari o‘zining o‘ziga xoslik jihatlari bilan alohidalik qoidalariga egadir. Musiqashunos olim Il’yos Akbarov o‘zining “Musiqa lug‘ati” kitobida allaga ta’rif berar ekan, “Alla xotin-qizlarning o‘z bolalari, singil yoki ukalarini uxlatish uchun beshik yoki belanchakni tebratib aytadigan qo‘shig‘i. Alla aytish odatda faqat xotin qizlarga xos”[6] – deb zikr etgan.

Allalarning so‘z matnlari asosan onaning farzandini ovutishga qaratilgan va bola haqidagi orzu-niyatlarini izhori bilan bog‘liqdir. So‘zlar asosan to‘rtliklardan iborat bo‘lib, badihaviy uslubda ijro etiladi. Yuqorida keltirilgan ta’riflarga ko‘ra allalarning ikki ijroviy uslubi mavjud. Onalarning tabiiy allalari va sahnaga mo‘ljallangan allalar namunalaridir. Xalq allalarida tabiiy jarayon hukm sursa, sahnaviy allalar aytim janrlari kabi muayyan shaklga moslashtirilganligi kuzatiladi. Musiqa ijrochiligi amaliyotida allalarning cholg‘u yo‘llari ham mavjud ekanligini qayt etish lozimdir.

Xalq allalari tuzilish jihatidan naqoratli qo‘shiq shakliga xosdir. So‘z matnining bir baytidan so‘ng naqorat bandi “alla” so‘zlari bilan badihaviy tarzda kuylanadi. Allalarning bir band ijroviy ohanglari muntazam tarzda takrorlanadi. Musiqiy ohangda o‘ziga xos badihaviylik jihatlar ham alohida sezilib turadi. So‘z matnining mazmuni bolaning ulg‘ayishi, orom olishi, onaning farzandi borasida kelajakdagi orzu-umidlari, sog‘lom va mard yigit, iboli va orasta qiz bo‘lib katta bo‘lishlari xususidagi ezgu niyatlari badihaviy tarzda rivojlantiriladi. Allalarning so‘zlari xalq ijodiyoti namunalari hisoblanadi va xalq og‘zaki ijodiyotida yuzaga kelgan.

## BASTAKORLAR IJODIGA MANSUB ALLALAR

Buyuk rus kompozitorlaridan biri Mixail Ivanovich Glinka musiqa ijodkorlarining amallari xususida ibratli bir fikr aytib o‘tgan. U “Musiqani xalq yaratadi, kompozitorlar esa uni pardozlab yana xalqqa qaytadan in’om etadi” –

---

[5] F.Karomatov. “O‘zbek xalq musiqa merosi”, 1 Qo‘shiq, T., 1978. 7-b.

[6] I.A.Akbarov. “Musiqa lug’ati”, T., “G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va sanhat nashriyoti”, 1997. 12-b.

deb inson tafakkuri bilan yaratilgan musiqalarga baho bergan. Xalq allalarini ijrochilik amaliyotida keng ommalashtirishga sababchi bo‘lganlardan biri bastakorlardir. Odatda, bastakorlar xalq musiqa namunalarini yakka ijro uchun mo‘ljallab murakkabroq shakllar asosida qayta ishlaganlarini guvohi bo‘lamiz.

Bastakorlik amaliyoti har bir davr ma’naviy muhiti bilan xarakterlanadi. Zamon ruhiga moslab yaratish, o‘tmish an’analariga tayanish, ularni o‘ziga xos rivojlantirish va tinglovchilarning didiga moslab sayqallar bilan bezab yaratish ularning asosiy g‘oyasi hisoblanadi. Bastakorlar allalarni yaratishlarida musiqa ijodiyotining to‘rt jihatiga alohida ahamiyat qatarganlar. Birinchisi, xalq allalarining asl mohiyatiga asoslanish, ya’ni bastakorlar ijodining asl manbai xalq allaridir; ikkinchidan so‘z matnini zamonga xos ko‘rinishda ifoda etish; uchinchidan, ohang nuqtai nazaridan kengroq va rivojlantirilgan holda shakllantirish; va to‘rtinchidan, ijro jarayonida ijrochi va ovoz xususiyatlarini e’tiborga olishdir. SHu bois bo‘lsa kerak ijrochilik amaliyotida - “bu Lutfixon aya aytgan varianti yoki Habiba Ohunova aytgan (talqinidagi) alla” – deb xalq tomonidan berilgan baholarni guvohi bo‘lamiz.

Bastakorlar ijodlariga mansub allalar har tomonlama musiqa ijodiyotining mahsuli kabi o‘zining shaklan murakkabligi bilan, qo‘shiq janriga xos xususiyatlar bilan sug‘orilganligi, ijroda mahobatli munosabatlarni talab etadigan asarlar hisoblanadi. Ularda bastakorlarning musiqa merosini yaxshi bilishlari aynan allalarning xususiyatlarini ifoda etganliklari yaqqol namoyondir.

## IJODIY JAMOALAR BILAN AYTILGAN ALLALAR
(Alla kompozitorlar ijodida)

XX asrning boshlari o‘zbek kompozitorlarining ijodi shakllana boshlagan davr hisoblanadi. O‘zbek bastakorlari qatoriga professional darajadagi bilimga ega bo‘lgan, musiqa ilmi, nazariyasi va ijodiyoti bo‘yicha tarbiyalangan musiqa ijodkorlari, ya’ni kompozitorlik ijodiyoti kirib keldi. Bu o‘zbek kompozitorlik ijodiyoti maktabi edi.

Aynan shu davrdan boshlab o‘zbek kompozitorlarining ijodida ham, musiqa ijodiyotidan o‘rin olgan barcha janrlar, ya’ni simfoniya, opera, musiqali drama, kantata, oratoriya, balet, kamer musiqasi, kamer cholg‘u va vokal musiqasi, poema, syuita, romans va qo‘shiqlar ijod etila boshlangan. O‘zbek kompozitorlari ushbu janrlar qatorida allaga ham o‘ziga xos munosabatda bo‘lganlar.

O‘zbek kompozitorlarining allalari XX asrning boshlarida O‘zbekistonda ijod etgan rus kompozitorlari ijodida ko‘rina boshlangan. O‘zbek xalq musiqa merosini, fol’klor va mumtoz musiqa merosini o‘rgangan va ularni notalarini yozishga muyassar bo‘lgan V.Uspenskiy, N.Mironov, A.Kozlovskiylar alla janrida orkestr va xor uchun o‘zlarining ilk asarlarini yaratganlar. Ushbu ijodkorlar xalq musiqasini yaxshi bilganlari uchun allaga murojaat etgan bo‘lishlari ham mumkin. Yoki allaning sirli dunyosini anglagan va uni yirik janrlarda ifoda etganlar.

Zamonaviy ijod bilan shug'ullangan barcha o'zbek kompozitorlari o'z ijodlarida alla namunalari yaratganliklarini guvohi bo'lamiz. M.Burhonov, G.Mushel, B.Giyenko, G'.Qodirov, M.Bafoyev, Q.Komilov kabilar shular jumlasidandir.

Kompozitorlarning alla janrida yaratgan asarlarini boshqa xalq yo'lidagi yoki bastakorlar yaratgan allalardan asosiy farqi, ularning ko'povozliligi, garmonik yoki polifonik uslublarda va janr nuqtai nazaridan muayyan shaklga mansubligidadir. Odatda, kompozitorlar allalarni vokal uslubida, ovoz uchun fortepiano yoki orkestr jo'rligida ijro etilishiga mo'ljallab yaratganlar. Bundan tashqari kompozitorlar ijodida an'anaviy ijroga mo'ljallangan allalar ham mavjud. Ularning ijro xususiyatlari ham an'anaviy ijro yo'lidagi ovozlarga xosligini e'tirof etish lozimdir. Shu bois, bu asarlar ijodiy jamoalar ijrosi uchun mo'ljallangan deb yuritiladi. O'zbek musiqa ijrochiligi amaliyotida o'zbek xalq cholg'u orkestrlari, kamer orkestri, sozandalar ansambllari jo'rligida va xor jamoasi tomonidan ijro etib kelinadi.

## ALLA IJROCHILIGI

Insoniyat yorug' dunyoni ko'rib, hali so'zlashish darajasigacha yetmagan davrlardanoq, odamlar orasida o'zaro munosabatlar, imo-ishoralar orqali o'ziga xos muloqotlar amalga oshirilganligi barchaga ayondir. Bu albatta harakatning alomatlari. Musiqa tushunchasi hali bo'lmagan. Lekin, ana shu davlarda ham onalar o'z farzandlarini turli xil ovozlar vositasida, ohang chiqarish bilan, ya'ni suvlar shovqini, qushlarning kuylashlaridagi ohanglari, tabiatning turli shovqinli navolari bilan ovutganlar, murg'ak go'dakni uxlatganlar. Aynan onalarning ana shu amallarini barchasi alla vazifasini bajargan desak adashmagan bo'lamiz. Zero, bu harakatlarning barchasi bola oromi bilan bog'liq bo'lgan. Qolaversa, oxir oqibat, bu harakatlarning barchasi xalq orasida, asosan onalarning amaliyotida allalarning kelib chiqishiga asos bo'lganligini e'tirof etib o'tish mumkin.

Demak, allalarning alomatlari va aynan ohanglar bilan aytish amallari insonlarda nutq (so'zlashuv) paydo bo'lmasdan oldin boshlangan. Onalar esa so'zlashuv nutqidan oldin o'z bolalari bilan muloqotda bo'lganlar. Ya'ni bolalarini tinchitib, ovutib, uxlatganlar. Bu hali alla emas, lekin allaning ilk namunasi deyish to'g'riroq bo'ladi. Faqat, qayd etish mumkinki, bu holat bola, ya'ni farzandning tinchlatish, orom olish uchun bog'liq ohanglar bilan amalga oshirilgan. Chunki, bola bilan muloqot - onalar uchun bu muqarrar jarayondir.

Shu bois "alla", dunyodagi barcha xalqlar ijodida o'ziga xos holda dunyoga kelgan, umumbashariyat xalqlarining barchasida onalar aytadigan allalari mavjuddir. Ular har bir xalqning milliy qadriyatlari va an'analari, tili va unga bo'lgan munosabati asosida o'ziga xos nomlanib kelingan. Masalan: ruslarda - kolibel'naya, bayki; qozoqlarda - besik jiri; qirg'izlarda – albey-albey; turkmanlarda – huvdi; ozarbayjonlarda – layla; boshqirdlarda – sngildak yiri; tatarlarda – bishik jiri; turklarda – ninni; arablarda la yalli va h.k. Ularning

nomlanishlari har xil bo‘lsada asosiy mazmuni birdir - alla va mohiyati aniqdir. Onaning bolasiga murojaatidir. Shuning uchun bo‘lsa kerak allalarning millati, elati bo‘lmaydi. U qaysi tilda bo‘lmasin va qaysi millat tomonidan aytilmasin, o‘zining badiiy obrazi, yoqimli ohangi va orombaxsh jozibasi o‘zi bilan qoladi. Allaning zaminidan o‘rin olgan so‘zlari ham tarjimaga muhtoj emas. Onaning allasidagi mazmun va mohiyat aniqdir. SHu nuqtai nazardan, allani chinakam ma’naviy kuch desak adashmagan bo‘lamiz. Ya’ni, alla bola ma’naviyatining asosiy poydevoridir.

Darhaqiqat allaning betakror quvvat manbai desak, uning zaminida mujassam topgan ma’naviy ozuqaning cheki yo‘qligiga ishonch hosil qilamiz. Onalar talqinidagi allalar albatta purmahnodir. Onalar allalari orqali o‘z farzandlariga sirli munosabatda bo‘lib, orom oldiruvchi fikrlar, g‘oyalarni izhor etar ekan, undan taralayotgan ohangdagi mazmun mohiyatning qanchalar kuchga ega ekanligini anglash mushkil emas. Chunki, uni cheki yo‘q. Qaysi yoshdagi odam tinglasa ham alladan albatta bir ma’no anglashi muqarrardir. Eng muhimi uni tinglaydi va idrok etish zavqlidir. U shunchalar sodda va o‘z o‘rnida purma’nodir. Unda onaning orzu-armonlari yashirin, lekin anglash uchun oson va tushunarlidir. CHunki, allada mehr bor, duo bor, tilak istak, saodatli kunlar sog‘inchi bor.

Allalarning ahamiyati xususida turli xalqlarda, turlicha rivoyatlar, mashoyiqlarning fikrlari bayon etilgan. Shunga bir misol: “Alla haqida risola tayyorlagan tadqiqotchi Guljahon Mardonova shunday yozadi: “Sibir xalqlari axloqi nobob kishilarni ko‘rsalar, “Bu onadan alla eshitmagan, balki faqat siltash eshitgan”[7] - ya’ni alla tinglamagan bolani kamsitilganligа e’tiborni qaratmoqchi. SHu bois ham bo‘lsa kerak xalqlarda alla aytishga katta e’tibor qaratilib kelinadi. Xalq allalarini asosida turli shakldagi asarlar yaratilib kelingan. Musiqa dunyosining rivojida faoliyat olib borgan ijod ahllari, zamonalariga mos allalarning namunalarini yaratib kelganlar. Bular nafaqat murg‘ak go‘daklarga, balki turli yoshdagilar uchun ahamiyatli tarzda ijod qilingan.

Hozirgi davrimizda ona bo‘lish arafasida turgan kelinchaklarning “Bolamga qanday alla aytar ekanman” degan xavotirda bo‘lishining ehtimoli yo‘q emas. Bu borada ularga alla aytish borasidagi ko‘rsatmalar, allalarning namunalaridan misollar, xullus, ulardagi bu muammolarni yechimi uchun manbalar yaratilishi dolzarb masalalardan hisoblanadi desak adashmagan bo‘lamiz.

Aslida xonandalik san’atining eng nozik va murakkab turiga murojaat etish shart emas. Bunday layoqat hammada ham bo‘lmasa ham buvilarimiz, onalarimiz o‘zlariga xos xonishlari bilan aytib kelishgan alla namunalarini ularga eslatish kifoyadir. Chunki, allada mehr bor, duo bor, tilak istak, saodatli kunlar sog‘inchi bor. Alla tarbiyaning manbaidir. Ona allasini bolaga onalik tuyg‘usi bilan xoh u bola o‘zinikimi, qarindoshinikimi, hattoki begonaning bolasi

[7] Munis Shams. “Guliston” jurnali, 2015. № 1, 33-b.

bo‘lsa ham mehru-muhabbat bilan aytilsa u albatta o‘z ta’sirini o‘tkazishi muqarrardir.

Demak alla aytish uchun keng diapozonli (keng ko‘lamli) ovoz bo‘lishi shart emas. Xalqimiz orasida buvijonlarimizning qalblaridan chiqqan o‘ziga xos ohanglari, alla shaklida bizgacha yetib kelib, onalar tilidan ustoz-shogird an’analariga o‘tib, o‘zbek musiqa merosidan munosib o‘rin olgan allalar ko‘p. Kelajak avlodni tarbiyasi uchun, maqsad qilgan yosh xonandalar uchun ushbu qo‘llanmada xalq allalaridan, bastakorlar ijodiga mansub allalardan va kompozitorlik amallari doirasida bitilgan allalardan namunalar keltiramiz.

## I. Xalq alla ijrochiligi.

Xalqimiz orasida kuylanib kelingan va hozirda ham onalarimiz tomonidan ijro etib kelinayotgan allalar o‘zining soddaligi bilan, ijro etishga qulayligi bilan ajralib turadi. Xalq allalarining ijroviy diapozonlari ham unchalik katta emas. Aksincha, kichik bo‘lgan. CHunki, yuqorida aytganimizdek bu allalarni ijro etish ham qulay va ham osondir. Kvinta, seksta intervallari oralig‘ida ijro etiladigan xalq allalari shakl nuqtai nazaridan nomutanosib deb hisoblansada o‘zining qonun qoidalari negizida muayyan shaklga xos xususiyatlarni kasb etadi. Xalq allalaridagi asosiy jihatlar ham uning xalqonalikligi bilan bog‘liqdir. Quyida xalq allalaridan keltirilgan namunalarni to‘rt jihatlari xususida ma’lumotlar keltirib o‘tiladi. Bu jihatlar ijrochi uchun, o‘quvchi-talabalar uchun nazariy-uslubiy ma’lumotlar sifatida xizmat qilishi mumkin. Ya’ni allalarning – shakli, so‘z asosi, ohang mazmuni va ijrochilik omillari. Musiqaning usul jihati allalarda ijrochi uchun o‘ziga xos erkinlik imkoniyatlarida qaror topganligini kuzatish mumkin. Bu albatta, xalq allalarida umuman usul mavjud emas degan fikr emas, balki xalq allalari o‘ziga xos erkin usullarga egaligini e’tirof etib o‘tmoqchimiz. Albatta allalarning matnlariga xos tasnifot har tomonlama tushunarlidir. Lekin, musiqiy ohang nuqtai nazaridan allalarning mavzu va ularga asoslangan ohanglarida unchalik tafovutlar bo‘lishi mumkin emas. Chunki allalarning ohang tizimidagi falsafiy ma’no, barcha allalarga xosligini qayd etish lozimdir.

Allalarning so‘z matnlaridagi mazmuniga qarab mutaxassislar uni o‘ziga xos jihatlarini belgilab olganlar. Xususan, – “Allalar an’anaviy mavzulari va ijro uslublari jihatidan 4 turga bo‘linadi:

- **go‘dakka mehru muhabbat, ardoq va fidoiylik izhor qiluvchi allalar;**
- **o‘git va nasihat allalari;**
- **ona iztirobi va hasratlarini ifodalovchi allalar;**
- **yaxshi niyat, ezgu tilak va orzu-umid allalari**”[8] deb bu jarayonni o‘ziga xos tasniflab o‘tganlar. Musiqiy ohang va ulardagi so‘zlarning mazmuniga qarab yana bir jihatni e’tirof etish lozimdir. Bu sifat albatta qaysidir ma’noda barcha allalarda mujassamdir. Ayrimlari asosan shu mavzuga asoslangan. Bu **farzand sifatlari ta’riflangan allalardir**.

---

[8] Moziydan sado. 2015. № 1, 33-b.

Xalq allalari bo‘lajak xonandalarning ijrolarida mehr bilan ovozning turli jihatlarini ishlatishni, tarovat kasb etuvchi ohanglarni talqin etish ko‘nikmalarini hosil qiladi. Shu bois ularni ijrolarida har bir allaning so‘z matnlaridan kelib chiqib ohang taratish maqsadga muvofiqdir. Allalarda erkinlik hukm surgani bilan ohangning metro-ritmik jihatlariga va ularning mutanosibligiga e’tibor berish yaxshi natijalar beradi. Ijroda asarning ritmik jihatlarini saqlash juda muhim jarayondir.

1. **“Hozir dadang keladi”.** Xalq musiqa ijodiyotidan o‘rin olgan, ijrochilik amaliyotida hozirgacha ijro etib kelinayotan allalardan biri. Ushbu alla, yaxshi niyat, ezgu tilak va orzu- umid bilan bog‘liq ma’nolarni kasb etuvchi allalar qatoriga kiradi. Unda oilaning boshi bo‘lgan otaning oiladagi o‘rni qanchalar muhimligi uqtirilish bilan birgalika, bolada otaga nisbatan mehr o‘yg‘otish kabi xislatlarni shakllantirish so‘zlari mujassam topgan.

Shakl nuqtai nazaridan alla oddiy qo‘shiq janriga xos bo‘lib, allalar shakli yorqin namoyon bo‘lib turadi. Undagi taktlar mutanosibligida ham ancha erkinlik mavjud. To‘rtlikdan so‘ng “alla-yo alla” so‘zlari naqoratsifat ijro etilishi ham allaning xususiyatlariga kiradi. Allaning asosiy ohang rivojini ikki davriyani tashkil etadi. Bu alla seksta intervali diapozoni mobaynida shakllanib rivojlangan. Odatda, bu alla namunasi an’anaviy tusga ega bo‘lib, uning ijrosida ham yengillik sezilib turadi. Xonandalar ijroda bunga e’tibor berishlari lozimdir. So‘z matnlari ham sodda va o‘ziga xosdir:

Hozir dadang keladi,
Olma olib keladi.
Bolajonimga debon,
Qo‘yniga solib keladi.
Allayo-alla.

Naqarot:
Alla, jonim alla,
Hozir uxlashga palla.
Dadan g ishdan kelganda-yo,
Oldiga cho‘ib chiqasano.
Allayo-alla.

Alla ohangi ham so‘zlarga mos sodda va erkin:
Misol № 1.

## HOZIR DADANG KELADI

**M.M. ♩.=52-54** O‘zbek xalq kuyi




**2. “Tolichavkonim bolam”.** Ushbu alla ham mavzuli allalardan. Onalarning dil hasratlari ifodalangan allalarning biridir. “Toli chavkonim bolam” allasi ona iztirobi va hasratlarini ifodalovchi allalar turiga xosdir. Allaning ushbu namunasi o‘zining so‘z matni va ohanglari ma’nosidan, ikkinchi jahon urushi davrida aytilganligi va xalq ijodiyotida ommalashganligini qayd etish mumkin. Urishga ketib qaytmagan yorini kutayotgan onaning dil nolalari hamda Saltanatxon qizining taqdiridan tashvishlanishi alla so‘zlarida mujassamdir. Allada onaning yorini intizorlik bilan kutishi, yorining kelishiga umidvorlik, ko‘chalarga termulishi, o‘z ifodasini to‘gan. Bu jihatlarni asarning so‘z matnida ko‘rish mumkin:

Tol ichidan tanlab olgan
Toli chavkonim bolam.
Gul ichidan hidlab olgan,
Guli rayhonim bolam.
Naqarot:
Allayo-alla,
Hammadan ham sening darding
Saltanat jonim mening,
Allayo-alla.
Olmadan otlar qilay,
Gul bargidan xatlar qilay.
Yora yurgan ko‘chalarni,
Termulib yodlar qilay.

Ushbu Insoniy xislatlar alla ohanglarida o‘zini namoyon etadi. So‘z bilan ohangning mutanosibligi allani mukammal shakllanishiga asos bo‘lgan deyish mumkin. Musiqiy ohang esa bastakor G‘anijon Toshmatov tomonidan sayqallangan va avj qismlarini qo‘shib, ansamblga o‘rgatilgan. Allaning murakkabligi ham shunda deyish mumkin. Uning ijrosiga ham alohida e’tiborda bo‘lish lozim. Chunki, asarning mukammalligi uchun uni ijro etishda xonandalardan katta mahorat talab etadi. Mavzuli allaligi sababli uning ijrosi murakkabdir:

Misol № 2.

## TOLI CHAVKONIM BOLAM ALLA




**3. “Aylanayin oydinim”** – qadimiy xalq allalaridan biri. Xalqimiz orasida keng ommalashganligiga sabab uning mavzusidir. Bu alladagi sifat ham deyarli barcha allalarda sezilib turadi, ya’ni farzandning sifatlarini ta’riflovchi matn xarakteriga egadir. Asarning matni quyidagichadir:

Aylanayin oydinim,
Qoshi sari yoydayim.
Talpinganing qo‘limda
Torlan qarchig‘aydayim.
Naqarot:
Alla, jonim, allayo,
Shirin jonim, allayo.

Qayd etish joizki, ijodiyot mezonlarida ushbu allaning ohang mag‘zi (mavzusi) ko‘pchilik tomonidan yaratilgan allalar uchun asos bo‘lganligini kuzatish mumkin. Ushbu alla aslida xalq og‘zaki ijodiyotida vujudga kelgan xalq allasidir. Asar ustoz sanhatkor, xalq musiqasidagi cholg‘u va ashula yo‘llarini bilimdoni, taniqli bastakor G‘anijon Toshmatov tomonidan qayta ishlangan. Qo‘llanmaga kiritilgan namunasi ham ustozning varianti namunasidir. SHu bois allaning musiqiy shakli, rivojlanish jihatlari, ijroviy omillari mutanosib holga keltirilgan. Ushbu asar barcha o‘zining shaklu-shamoili ijroviy jihatlari bilan qo‘shiqqa xosdir.

Misol № 3.

## AYLANAYIN OYDINIM

**M.M. ♩=60-64**

O‘zbek xalq allasi



**4. “Jon bolam do‘ndiqqinam”** – xalq ijodiyoti amaliyotida juda keng ommalashgan allalardan biri. Alla o‘zining soddaligi, ravonligi, xalqchilligi, so‘zlarining hammabopligi bilan ajralib turadi. Ushbu allada ham asosan farzandning sifatlari ta’rif etiladi. O‘zbekiston radiosi orqali keng targ‘ib etilganligi sababli bo‘lsa kerak, xalqimiz orasida juda keng ommalashgan. Alla, taniqli san’atkor Maryam Yoqubova ijrolarida deyarli har kuni yangraganligini qayd etish joizdir. Alla naqorat bilan boshlanadi:

Naqarot:
Jon bolam, do‘ndiqqinam, allayo-alla.
Shirin qo‘zichog‘im, allayo-alla.

Osmondagi yulduzimo, alla.
Yum-yum ko‘zing qunduzingo, alla.
Kecha qonib uxlasango, alla.
Quvnoq o‘tar kunduzingo, alla.
Allayo-alla.
Olmalardan beshigiyo, alla.
Olib qo‘ysin otasiyo, alla.
Behilardan beshgiyo, alla.
Belab qo‘ysin buvisiyo, alla.

Allaning musiqiy ohang jihati badihaga xos, mavzusining soddaligi bilan ajralib turadi. Asarning ijrosi yengil holda talqin etilgan. Xonanda ijroda bunga e’tibor berib ijro etsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Misol № 4.

## DO‘NDIQQINAM ALLA

**M.M. 𝅗𝅥=96-100** O‘zbek xalq kuyi



**5. “Jigargo‘sham alla”** – Yurtimizda mavjud to‘rt vohasining o‘ziga xos allalari ham mavjud. Bunda albatta vohalarning ijtimoiy jihatlari, shevalari bilan bog‘liq talqinlari, vohaning o‘zigagina xos bo‘lgan jihatlar bilan sug‘orilanligini kuzatish mumkin. Bunday allalar Xorazm vohasida ham, Qashqadaryo-Surxondaryo vohasida ham, Buxoro – Samarqand vohasida ham va Farg‘ona-Toshkent vohalarida ham mavjudligini e’tirof etish lozimdir.
“Jigargo‘sham alla” namunasi ham ana shunday vohaviy ahamiyatga ega bo‘lgan alalalardan biridir.

Allada o‘zining ijroviy jihatlaridan Surxon vohasiga xosligini aytish mumkin. Allada farzandning sifatlari ta’rif etiladi. Surxon vohasiga xos alla ekanligini allaning so‘zlaridan ham kuzatish mumkin. Ona bolasini xalq dostonlarida kuylanib kelingan Barchinoy, Alpomish kabi xalq qahramonlariga qiyoslashi, vohaga xos soddalik bilan talqin etilishi bunga misoldir. Buni biz allaning so‘zlarida, matnida o‘z aksini to‘ganligini ko‘ramiz:

Jigargo‘sham orim bolamo, allayo-alla,
Karvonimda norim bolamo, allayo-alla.

Qaldirg‘ochim sorim bolamo, allayo-alla,
Ko‘zginamning nuri bolamo, allayo-alla.

Barchinoyim, ‘ari bolamo, allayo-alla,
Bog‘larimning guli bolamo, allayo-alla.

Jigargo‘sham orim bolamo, allayo-alla,

Allaning ohanglarida erkin aytishga moyillik mavjud. Shuning uchun uning nota namunalariga fermato belgilari qo‘yilgan. Ya’ni asarni erkin ijro etsa bo‘ladi. Turli variantlarga xos xususiyatlari mavjudligini xonandalar bilib ijro etishsa maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Misol № 5.

**JIGARGO‘SHAM ALLA**

**M.M. ♩=48-52** O‘zbek xalq allasi




**6. “Gulilolam alla”** - Ko‘p millatli O‘zekiston aholisida turli millat vakillari istiqomat qilishi barchaga ayon. Ayniqsa, ruslar, tojiklar, qozoqlar, tatarlar,

koreyslarni misol qilish mumkin. Bu xalqlar ham barchalari o‘z allalarini saqlab kelganliklari begumondir. Ayniqsa o‘zbek-tojik xalqlarining allalari bir biriga juda o‘xshash. Klassik asarlar, mumtoz asarlar va lirik qo‘shiqlar, yallalar va h.k. va albatta allalarning ohanglari ham bir biriga o‘xshash. Bu allaning ohang mag‘zi, ularda ishlatiladigan jilolar o‘zbek va tojik tillarida ijro etilganda ham ohangi o‘zgarmaydi. Shu bois xalq ijodiyoti amaliyotida allalarning aytilishlarida o‘zbek va tojik variantlari mavjud ekanligini ko‘ramiz.

Man bachama alla go‘yam, allayo-alla.
Orom megirodmikino, allayo-alla.
Sahar xesta bog‘ ba rafta, allayo-alla.
Guli lolam yofta natonistom, allayo-alla.

“Gulilolam mening” namunasi yengil xarakterda ijro etiladigan allalarlan biridir. Uning ijrosida kuy ohang o‘zgarmaydi. So‘z ham gohida tojik tiliga va o‘zbek tilida ijro etilib kelingan.
Misol № 6.

**GULI LOLAM ALLA**

**M.M. ♩.=60**

Tojik xalq allasi




7. **“Alla”**[9] – Musiqashunos E.E.Romanovskaya tomonidan xalq ijrochilari ijrosidan yozib olingan alla namunasidir. Bu asar 1930 – yillarda notaga olingan xalq alla namunasidir. Shu bois uning so‘z matni ham xalqona turli mavzulardan tashkil to‘gan. Allaning matnidan ushbu namuna Farg‘ona vodiysiga xosligini qayd etish mumkin. Chunki, unda oddiy onalarning allasi, musiqashunos olim tomonidan notaga olingan.

[9] Е.Е.Романовская. Статьи и доклады. Записи музыкального фольклора. Т., 1957, 78-b.

Alla aytay men senga alla.
Sen olgin allamdan orom, alla.
Joningdan onang o‘rgulsin, bolam, seniyo, alla.
Toshxonim bolam, alla.

Allaning ijrosida shaklan oddiy va erkinlik jihatlarni hukm surishi qayd etilgan. Unda notalarning cho‘zimi orqali o‘ziga xos ohang tizimi shakllantirilgan. Ohangning ravon shakllanishida usulning o‘ziga xos badihaviylikka xosligini ko‘rish mumkin.

Misol № 7.

**ALLA**




## II. Bastakorlar yaratgan allalar ijrochiligi.

Alla janri xususida ba holi qudrat ayrim fikrlarni bayon qilgandek bo‘ldik. Lekin, darhaqiqat alla insoniyatni o‘ziga rom etish bilan birga, o‘ziga jalb etuvchi kuchga, ijodkorni ijod etishga undaydigan xususiyatga ham ega ekanligini musiqa ijodiyoti namoyandalarining xalqimizga qoldirgan merosidan bilib olishimiz mumkin. O‘zbek bastakorlarimiz ijodiga nazar solar ekanmiz, ularni orasida deyarli  sakson foizdan ko‘proq namoyandalar (80 %) alla janrida ijod etishganligiga guvoh bo‘lamiz. Har bir bastakorlarimiz ijodida, amaliyotida, o‘z ijodiy tiliga mansub bo‘lgan alla namunasi mavjuddir. Har bir ijodkor o‘z faoliyatida zamon ruhini, tabiatini, davrini, zamonasini, xalqimiz yutuqlarini, mehr-muhabbatini, ishq va sevgini, vafo va sadoqatni madh etar ekan, unda ona allasidan kirgan ezgu tuyg‘ular rahnamolik qilishini o‘zi ham anglab turadi.

Ijodkorning go‘daklik chog‘larida tinglagan ona allasi, uning shakllanishida asos sifatida xizmat qilishi ko‘p manbalarda zikr etilgan. Agar bastakor yoki kompozitor ham ijodkor sifatida shakllanib xalqini, yurtini, millatini ohanglarga  solib madh etar ekan, birinchi galda uning asarlarida o‘z qalbi ohanglari mavj uradi. Bu ohanglar uning katta ijodi uchun asos sifatida xizmat

qiladi. Shuning uchun musiqa ijodiyoti namoyandalarining bizga qoldirgan ijod daftarlaridagi allalar va alla kabi yaratilgan asarlar oddiy va sodda, lekin professional munosabatlarda bitilganligiga guvoh bo‘lasan kishi.

Allalar azaldan xalq og‘zaki ijodining mahsuli ekanligini yuqorida qayd etib o‘tildi. Lekin, inson tafakkuri ila yaratilgan har qanday asar xalqning ma’naviy dunyosini anglatadi va madaniyat rivojini o‘zida namoyon etadi. Allaning falsafiyligi, faqatgina go‘daklarga onalar tomonidan ijro etilganligi emas, balki, har qanday insonning ma’naviy dunyosini boyitish uchun, kamoloti uchun xizmat qilishidadir. Shu bois allalar, bola kamoli uchun muhim bo‘lgan ohanglarni madh etuvchi janr ko‘rinishida musiqa ijodkorlarining amaliyotida shakllanadi. Bastakorlik ijodiyotida allalar oddiylikdan murakkablikka o‘sdi. professional janr sifatida rivojlandi. Allalar aynan bastakorlar tomonidan sahnaga chiqishiga sababchi bo‘lganligini ham e’tirof etib o‘tish lozimdir.

Bastakorlar yaratgan allalar esa professional xonandalar tomonidan ijro etila boshlandi. Bu bilan xonandalik amaliyotida o‘ziga xos ijro uslublari, aynan allalarga xos ohanglarni talqin etishga undaydigan ijroviy jihatlar kirib keldi. Allani ijrosi uchun nafaqat oddiy aytim yo‘llari, balki, xonandalikning amaliyoti uchun zarur bo‘lgan mohirlik usullaridan foydalanish ijrochilik amaliyotida zarur omil sifatida shakllandi. Allalarni ehtirosli ijrosi, xonanda ovozlarining mukammal talqinini talab eta boshladi. Bastakorlik allalarining sahnaviy xususiyatlari va ijroviy xususiyatlarining professional darajaga kelishining asosiy sababi shundadir. Har bir bastakor yaratgan alla bastakorlarning ijodiy xususiyatlaridan kelib chiqib, muayyan ijrochining ovoziga va talqiniga moslab yaratilishi buni negizidagi mohiyat bo‘lishi mumkin. SHuning uchun bastakorlar yaratgan allalarning o‘ziga xoslik jihatlari uslub mezoni bilan sug‘orilgandir. Ana shunday allalardan biri xalq bastakori Karimjon Mansurov ijodiga mansub asar bo‘lib, xalqimiz ardoqlagan Mukarrama Azizova va Habiba Oxunova talqinlarida dovruq qozongan.

1. **“Alla aytay”** – bastakor Karimjon Mansurov kuyi. Ushbu alla bastakorlar yaratgan allalarning xalqimiz orasida keng ommalashgan namunalaridan biridir. Bastakor o‘z davrining mohir xonandasi Mukarrama Azizova ijrosi uchun yaratgan. Mukarrama Azizova bu asarni o‘ziga xos ijro etganligi xalqimizga ma’lum. Alla xalq qo‘shiqlari shaklida yaratilgan. Unda onaning hasrat ohanglari, orzu umidlari mavjud bo‘lib, o‘ta ehtirosli ijroga xosligi bilan boshqa allalardan farq qiladi. Bu jarayon allaning so‘z matnlariga juda mosdir. Xalq allalariga xos bo‘lgan onaning orzusi, istaklari, bolasiga tilagan niyatlari, bolaning iftixorini kuylab, farzand uning baxti va saodati ekanligi aytiladi. Bolani maqtovida esa eng ezgu niyatlar mujassam topgan. (H.Ohunova)

Alla aytay jonim bolam, quloq solgin, alla,
Shirin allam tinglab asta uxlab qolgin, alla.

Alla aytay jonim bolam, shirin qo‘zim, alla,
Sen quvonchim, iftixorim, ko‘rar ko‘zim, alla.

Allaning shakli jihatlarida so‘z bilan mutanosiblik, muayyan usulda ijro etilishi bilan professional talqinni talab qiladi. Kuy ohangning allalarga xos jihatlari, davriya shaklida tarkib topganligi va o‘ziga xos dramaturgik rivojlov ijrochiga bor mahoratini ishga solish uchun katta imkoniyat beradi. Ayniqsa asarning avj qismi xonandadan ovozni shahdam tarannum etish bilan birga nafosatli talqinni talab etadi. Shu bos ushbu asar zamonasining mashhur xonandasi Habiba Oxunova tomonidan mukammal talqin etilgan va xalq orasida shuhrat topgan. Shu bilan birga, allaning keyingi ijroviy taqdirida Habiba Oxunova talqini barcha xonandalar uchun o‘ziga xos ibrat sifatida xizmat qilib keladi. Xonandaning ehtirosli ijrosi xalqimiz ma’naviy dunyosidagi eng go‘zal an’analarni o‘zida mujassam etgan.

Misol № 8.

**ALLA AYTAY**

**M.M. ♩=104-108** K.Mansurov musiqasi






2. **“Sen orom ol qo‘zim”** – zamon ruhi bilan sug‘orilgan, an’analar zaminida yaratilgan allalardan biri bo‘lib zamonaviy bastakor Abduhoshim Ismoilov qalamiga mansubdir. Abduhoshim Ismoilov yuzlab asarlari bilan muxlislar va tinglovchilar ko‘nglidan joy olgan yetakchi bastakorlarimizdan biridir. Uning ijodidan o‘zbek bastakorlik amaliyotida mavjud barcha musiqiy shakllar o‘rin olgan bo‘lsa, shular qatorida alla ham o‘ziga xos tarzda yaratilganligini guvohi bo‘lish mumkin. Bastakor allani yaratishda o‘tmish onalar allalarini barcha xislatlarini zamonaviy talqinga mujassam etgan. Bu jihatlar asarning barcha tarkibiy jihatlarida namoyondir. Ayniqsa shakliy tuzilmasida o‘ziga xos erkinlik mavjudligi uning haqiqiy allalarga xos jihatlarini namoyon etadi.

Ushbu allaning ham matn mazmunida farzand sifatlarini ta’rifi kuylanadi. Asar sifatida o‘zining mukammallik jihatlariga ko‘ra respublikamizda o‘tkazilib kelinayotgan koprik tanlovlar dasturidan joy olgan. O‘zbekiston xalq artisti, xonanda Zamira Suyunova tomonidan ijro etilgan ushbu alla hozirgi paytda ko‘plab xonandalar tomonidan ijro etilib kelinmoqda:

Horg‘in ko‘zlarimga yuzing bosaman,
Xohlamasam hamki uyqung buzaman,
Ko‘kda yulduzlardan marjon tuzaman,
Sen orom ol qo‘zim,mening yulduzim,
Allayo-alla.

Tanangda jon o‘zim asal do‘mbog‘im,
To‘lin oydek to‘ldirib bag‘rim o‘pog‘im,
Ko‘nglim kabi o‘s ildam, gullasin bog‘im,
Ammo hozir orom ol, qalbim qunduzim,
Allayo-alla.

Allaning yaratilishida ashula shakliga moyil jihatlar bilan sug‘orilgan. Asarning ijroviy diapozoni keng. Uning talqini uchun ham xonandalarda shunga xos ovoz va ijroviy malaka bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Xususan, xonandalar ovoz dia’ozoni keng bo‘lishi, tovush ko‘lami ham o‘ziga xos jozibali bo‘lishi talab etiladi. Shu bilan birga, allaning talqinida xonandaning ijro mahorati kuchli bo‘lishi, asarning barcha jihatlarini ochib berishda qo‘l keladi. Misol № 9.

## SEN OROM OL QO‘ZIM



3. **“Qunduzim desam ham oz”** – XX asrning zabardast bastakorlaridan biri, musiqiy merosimizga ulkan hissa qo‘shgan atoqli sanhatkor, ustoz sozanda Faxriddin Sodiqov o‘z ijodida yuzlab kuy va ashulalar yaratgan. Shular qatoridan “Qunduzim desam ham oz” nomli alla ham o‘rin olgan. Bastakor o‘zining uslubi doirasida yaratgan ushbu alla tabiiy allalar kabi chiqqanligini e’tirof etish lozim. Chunki, bastakorning uslubi ham xalqonaligi, muloyimligi, kasbiyligi va yoqimliligi bilan o‘zbek musiqa ijodiyotida alohida o‘rin egallaydi. Xalq ijrochilik amaliyotida xonanda Tursunoy Mamedova ijro etgan va ommalashgan. Bastakor ushbu asar uchun mos so‘z tanlaganligini ham e’tirof etish lozimdir.

Qunduzim desam ham oz,
Yulduzim desam ham oz,
Dunyoda nima go‘zal
Bo‘lsa undan o‘zing soz.
Uxla yulduzim allayo,
Orom ol qo‘zim, alla.

Bu allaning kuyi xalqchilligi bilan qadrlidir. SHuning uchun bo‘lsa kerak ushbu alla Faxriddin Sodiqovning tinglovchilar qalbidan joy olgan qator asarlaridan biri sifatida o‘zbek musiqa merosidan o‘rin olgan. Allaning yaratilgan davrining o‘zida bir qator xonandalar tomonidan sevib kuylangan. Hozirgi davrga kelib ham alla o‘zining salohiyatini yanada oshirib kelmoqda. Buni biz allaning ansambl, kamer orkestrlar jo‘rligida talqin etilganligi bilan izohlashimiz mumkin.

Misol № 10.

**QUNDUZIM DESAM HAM OZ**



4. **“Baxtimga omon bo‘l alla”** – allalarning mohir kuylovchisi, xonanda va bastakor Zamira Suyunova ijodiy namunalaridan biri. O‘tmishda allalar avvalo onalar mehru muhabbati, orzularini izhori sifatida amaliyotda yuzaga kelgan. An’anaviy xalq allalari undan tashqari, ularning shodlik - quvonchi va dardu hasratlari ifoda etilgan bo‘lsa, hozirgi davrimiz shoir - shoiralari alla qo‘shiqlarida farzandlariga buyuk avlodlarimizga nisbatan faxr tuyg‘usini shakllantirish mavzusiga e’tibor qaratmoqdalar. Bunga yorqin misol “Baxtimga omon bo‘l alla” qo‘shig‘idir. Allaning asosiga T.Niyozovning she’ri tanlangan. Shoirning matn talqinida allalarga xoslik sozlarning go‘zal ifoda etilganligi va ularning kuy uyg‘unligiga moyilligi sezilib turadi. Ona istagi, orzusi va maqtovlari matnda chiroyli va go‘zal shaklini topgan. Uning mazmunida o‘nmish an’analarini samonga mos talqinini ko‘rish mamkin. Shu bilan birga kelajakka umid, kamolot sari orzular turkumi o‘z ifodasini topgan.

Baxtimga omon bo‘l, o‘sib katta bo‘l,
Kunday yorug‘ bo‘lsin umring uzun yo‘l,
Bosgan qadamingdan unib chiqsin gul,
Uxla bolam, uxla jonim, allayo-alla.

Ushbu allaning ilk ijrochisi, “dutorchilar ansambli” xonandasi Yodgora Dushanovadir. Keyin muallif tomonidan ham dutorchilar ansambli jo‘rligida ijro etilgan. Alla dia’ozoning keng qamrovliligi, shaklan mosligi, tarkibiy jihatdan mukammalligi va xalqona ohanglarga boyligi bilan, xalq orasida o‘tkazilib kelinayotgan respublika alla festivallari ijro dasturlaridan o‘rin olgan. Allaning xalqonaligi va ijro uchun qulaylik tamonlari mavjudligi sababli yoshlar orasida keng ijro etib kelinmoqda.
Misol № 11.

## BAXTIMGA OMON BO‘L






5. **“Bolamsanu – bolamsan”.** O‘zbek bastakorlarining mavzuli tarzda yaratgan asarlarining yorqin namunasidir. Chunki, ushbu alla namunasi, farzand orzusida ko‘p iztirob chekkanlik mavzusiga oid musiqali drama uchun yaratilgandir. Ijro amaliyotida ijrochisini topgan va keng ommalashgan.

Bolamsanu-bolamsan, alla.
Mening uchun sen bir jahon olamsan, alla.

Sen tug‘ilding bag‘rim to‘ldi, jonginam alla.
Go‘yo olam menga bo‘ldi, asalim alla.

Xonanda Habiba Oxunova o‘zbek san’at olamining betakror ovoz sohibasi sifatida elga tanilgan. O‘z davrining shinavandalari, san’atkorlari tili bilan aytganimizda, dard bilan qo‘shiq aytgan xonandalar orasida oliy o‘rindagilaridan deb e’tirof etilgan. “Bolam sanu – bolam san” va “Alla aytay” kabi alla namunalarini Habiba Oxunova ijrosida tinglagan insonning qalbi huzur qiladi. Bu allalarni ijro etmagan xonana bo‘lmasa kerak. Bunda ham farzandning sifatlarini tahriflash bilan birga intizorlikda farzand kutib,

orzusiga erishgan onaning nolasi alla sifatida shakl topgan. Ushbu alla namunalarining ijrosi ham xonandalardan katta mahorat talab etadi.

Misol № 12.

**BOLAMSANU-BOLAMSAN**




III. **Kompozitorlar yaratgan allalar.**

O‘zbek bastakorlarining alla janri ijodiyotidagi amallari o‘zbek kompozitorlari ijodiga ham ta’sir etmay qo‘ymadi. Ma’lumki, allalar butun jahon kompozitorlarining ijodidan ham munosib o‘rin olganligi barchaga ayondir. O‘zbek kom’ozitorlik ijodiyotida ham alla janrining yaratilishi o‘ziga xos ijod namunasi sifatida o‘zini namoyon etadi. Shular qatorida o‘zbek kompozitorlari ham bu borada bir qator allalarni xalqimizga taqdim etganliklarini ko‘rish mumkin.

Qayd etish joizki, kompozitorlar ijodiga mansub allalar, aslida professional musiqiy janrga mansubligi bilan ijodiyot namunalari sifatida merosdan o‘rin olgan. Kompozitorlik ijodida musiqiy janrlarning rang – baranglik ko‘lami kengdir. Shu bilan birga asarlarning ijro amaliyotidagi uslublari va yo‘llari ham o‘ziga xosligi va xilma - xilligi bilan ajralib turadi. Jumladan, xor jamoasi talqinidagi (jo‘rli va jo‘rsiz, yakka va xor uchun va h.k.) asarlar, ovoz va torli kvartet, kamer cholg‘u orkestri, xalq cholg‘u orkestri, simfonik orkestrlar jo‘rligidagi ijroga mo‘ljallangan asarlar. Buni allalarning

kompozitorlik ijodiga kirib kelishi va allalarning professional sahnalarda ijro etish uchun mo‘ljallangan namunalari deb tushunish ham mumkin. Allalarning tabiatida insoniylik kamoloti uchun zarur unsurlar mavjudligi, allalarning professional ijodga kirib kelishiga sabab bo‘lgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Allalar ayniqsa kamer musiqa ijrochilik amaliyotida alohida o‘rin egallab keladi.

O‘zbek kompozitorlarining aksariyati o‘z ijodlarida bu janrga murojaat etganliklarini ko‘rish mumkin. Ijrochilik amaliyotida ham muntazam ijro etilib kelinayotganligi fikrimizga dalil bo‘la oladi. SHu bois qo‘llanmaga ham bir qator kompozitorlar asarlari, ijodiy jamoalar tomonidan ijro etib kelinayotgan allalarni kiritganmiz. Bu allalar hozirgi davrda ham ijrochilik jamoalarining ijro repertuarlaridan keng o‘rin olgan va xonandalarning ijro repertuarini boyitib kelmoqda. Zamonaviy xonandaning ijro repertuaridagi professional allalar, xonandalarning dasturining rang-barangligi va eng muhimi xonish madaniyati, talqin mezonlarining mutanosiblashishi va ehtiroslar bilan boyishiga xizmat qiladi.

1. **“Bobolaring ulug‘ siymo”** Botir Umidjonovning xor va yakka ovoz uchun (ansambl va yakka ovoz varianti ham mavjud) alla janrida yaratgan asari.

O‘zbek musiqasida xor ijrochiligi rivojiga katta hissa qo‘shgan O‘zbekiston xalq artisti, kompozitor Botir Umidjonovning bu asari xor jamoasi va yakka ovoz uchun yaratilgan. O‘zbekiston teleradio kompaniyasi qoshidagi xor jamoasi va O‘zbekiston xalq artisti Zamira Suyunova tomonidan ijro etilgan. Ayniqsa xor partiyalari, ya’ni ko‘p ovozlarning bir-biriga uyg‘unligi allaning tahsirchanligini oshirgan. Va yakka ovoz tembri alla qo‘shig‘iga munosib tushgan. Asarning asosiy g‘oyasi barkamol avlodni ajdodlar anhanalari negizida tarbiyalash. Ularning buyuk ma’naviyatini yuksaltirishdan iborat bo‘lgan. Bu allada asosan xalqimizning tarixida ibrat bilan zikr etilgan buyuk avlod namoyandalari tilga olingan. Ularning qahramonliklari, xalq uchun doston bo‘lishga arzigulik qilgan ishlari madh etiladi. Va farzandlar ularga munosib bo‘lishi lozimgini uqtirilgan.

Bobolaring ulug‘ siymo, bolam, alla,
Al-Xorazmiy, ibn Sino, bolam, alla,
Momolaring Zebuniso, bolam, alla,
Nodiradek aqli raso, bolam, alla.

Asarning ijrosi ham shunga xos talqin etilishi juda muhimdir. Asarda o‘tmish qahramonlarini o‘zgacha ko‘tarinkilik bilan, ohanglarning muloyimligi bilan, jozibali ovozlarda kuylanishi maqsadga muvofiqdir. Asarning ko‘lami, ya’ni diapozoni unchalik katta emas. Ammo xonandalardan uni mahorat bilan ijro etishlari talab etiladi.

Misol № 13.


Solo
S.
A.
T.
B.
p
Bo - bo - la - ring u - lug‘ siy - mo,
bo - lam, al - la, Al - Xo - raz - miy,
I - bn Si - no, bo - lam, al - la, Mo - mo - la - ring
Ze - bu - ni - so, bo - lam, al - la, No - di - ra - dek
aq - li ra - so, bo - lam, al - la.

2. **“Dunyodagi baxtim bolam”** – ushbu asar kompozitor va bastakor Bahrulla Lutfullaev tomonidan yaratilgan. Taniqli kompozitor Botir Umidjonov tomonidan ushbu asar xor va yakka ovoz uchun qayta ishlangan. Asar ilk marotaba xonanda Zamira Suyunova talqinida ijro etilgan. Har tomonlama mukammal asar xonandalar tomonidan qizg‘in kutib olingan. Uning so‘z matnlari falsafiy ekanligini ko‘rish mumkin. Chunki matnda tilab olingan bolaga nisbatan aytilayotganligi uqtiriladi.

Jonim bolam, baxtli bolam, allayo-alla.
Tilab-tilab topgan bolam, allayo-alla.

Dunyodagi baxtim o‘zing, allayo-alla.
Hayotim ham boring o‘zim, allayo-alla.
Jonim bolam, baxtli bolam, allayo-alla.

“Dunyodagi baxtim bolam” asari mavzuning originalligi bilan ajralib turadi. Shu bois bo‘lsa kerak, ushbu asarni Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrining bosh rejissyori Rastam Ma’diyev o‘zining “Taqdir” nomli musiqali dramasining bosh mavzusi qilib olgan. Bu asarning mavzusi musiqali dramada boshdan oyoq o‘ziga xos tarzda dramatik rivojlanadi. Spektakldа xonanda Zulayho Boyxonova talqinida asar yanada o‘zgacha jilolarini topgan. Asar mahorat bilan ijro etilsa va uning tarkibidagi iztirbli jarayonlarni xonanda bilib ijro etsa, asar yanada falsafiy tus olishi mumkin. Asarning zamirida, mavzuning boyitish imkoniyatlari mavjudligini qayd etish joizdir. Xonandalar tomonidan ijro etish jarayonida bu xususiyatlarga e’tibor beri b talqin etilishi lozimdir. Misol № 14.

**DUNYODAGI BAXTIM BOLAM**

B.Lutfullayev musiqasi
B.Umedjonov xor uchun qayta ishlagan

**Og‘ir va nozik**






3. **“Beshiklari tilloli”** – torli kvartet jo‘rligida yakka ovoz ijro etgan ushbu asar Zamira Suyunova ijodiy namunasidir. Asarni kompozitor Polina Medulyanova torli kvartet va yakka ovoz uchun kamer orkestriga moslashtirilgan. Allaning kamer orkestri ovoz tembriga mosligi ijro jarayonida o‘zini namoyon etganligini kuzatish mumkin. Skripka va violonchel cholg‘ularining ovoz tuslari qo‘shiqqa juda munosib tushgan. Kuy xalqona alla ohanglariga juda yaqinligi tufayli tinglovchilarga juda manzur bo‘lgan. Hozirgi paytda ushbu asarga yoshlar tomonidan alohida munosabat bildiriladi va uni xonandalar sevib ijro etmoqdalar. Har qanday asarning ijroviy imkoniyatlari, uning tarbiyaviy g‘oyasi, asar talqinida mahoratni namoyon etish uchun ijrochining imkoniyatlari, va xususan asarda o‘ziga xos shaklu-shamoyil va joziba bo‘lsa, u asar albatta xonandalar ijro repertuaridan munosib o‘rin egallashi mumkin. “Beshiklari tillodan” asari ana shunday zamonaviy alla namunalaridan biridir.

Misol № 15.






4. **“Ona tilagi” - musiqa ijodkori, kom’ozitor va bastakor** Qo‘ldosh Mamirov yaratgan asardir. Mazkur asarning she’riy matni muallifi M.Turopova ta’biri bilan aytganda, olamning yurak urushi onalar tilidan kuylanadigan allalardan o‘z inhikosini to‘adi.

Shirin alla uchar tilimdan,
Oppog‘imni tebratganimda,
Javohirday ko‘char dilimdan,
Ufuradi go‘yoki ko‘klam.
Naqarot:
Alla, alla, ona tilagi,
Shu allada olam yuragi.

Mayin, lirik ohangda kuylanadigan bu alla metso soprano ovoziga ega bo‘lgan ovoz uchun mo‘ljallangan. Unda onalik baxtiga muyassar bo‘lgan ayolning o‘z farzandiga va butun olamga bo‘lgan mehrli munosabati ifodalanadi. Alla xonanda Dilorom Muhamedova tomonidan go‘zal talqin etilgan.

Ushbu alla qo‘shiq janrida yozilgan bo‘lib, uning ijrosi xonandadan yuksak did va ehtirosni talab etadi. Asarni siniq, bosiq ovozda, ichki dard bilan kuylash lozimdir. Asar xalq cholg‘ulari orkestri va yakka ovoz uchun yozilgan bo‘lib ijroda ham bunday jamoaning salohiyati va salobati o‘z ifodasini topgan. Misol № 16.

## ONA TILAGI

M.Turopova she’ri

**Moderato** Q.Mamirov musiqasi







5. **“Romans (Alla)”**. Kompozitor Mustafo Bafoyev musiqasi, Rustam Mahdiev so‘zi. Ijodkor Mustafo Bafoyev ushbu “Romans (Alla)”ni orkestr va ovoz uchun mo‘ljallab yaratgan. Ovoz ham akademik vokal ijro uslubiga va an’anaviy ijro uslubiga mosdir.

Kompozitor o‘z ijodida barcha janrlarda mukammal asarlar yaratgan. Uning yuzlab asarlari bizga mahlum. Ayniqsa orkestr uchun yaratgan yirik formadagi musiqiy asarlar o‘zbek kompozitorlari orasida va shinavandalar orasida keng ommalashganligini e’tirof etish lozimdir. Sahnaviy asarlari, simfonik va kamer asarlar, ovoz uchun va cholg‘u musiqa janrida yaratgan asarlar har qancha e’tirofga loyiqdir. Bugungi kunda, orkestrlar uchun va xor jamoalari uchun yozilgan mualliflik asarlarini faxr bilan aytish mumkin. Kompozitirlar shular qatorida yakka ovozlar uchun ham ko‘p ashulalar va qo‘shiqlar yozganlar.

Romans allaning so‘zi Rustam Mahdiyev tomonidan bitilgan va she’r mavzusining kengligi musiqiy asar ko‘lami uchun ham xizmat qiladi:

Muhabbatim nishonasi, allayo-alla.
Porlab tursin peshonasi, allayo-alla.
Oltin bo‘lsin ostonasi, allayo-alla.
Charaqlasin koshonasi, allayo-alla.

Oqar suvlar shalolasi, allayo-alla.
Orzularim shabadasi, allayo-alla.
Beshigining bek bolasi, allayo-alla.
Otasining mard bolasi, allayo-alla.

M.Bafoyevning bu asari, akademik xonandalik sohasi vakili Mahfuza Ismoilova tomonidan juda go‘zal ijro etilgan. Sharqona ohanglarda bastalangan bu asar tinglovchilar olqishlariga sazovor bo‘lib, amaliyotda ijro etilib kelinmoqda.

Mustafo Bafoyev asarlarining o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, u mavzuni o‘zi tanlaydi va mohirona uni rivojlantiradi.

Misol № 17.

**ROMANS**
**(Alla)**

R.Ma’diyev she’ri
M.Bafoyev musiqasi




Allada kompozitor frigiy ladini ko‘p ishlatishida muallif ozarbayjon, afg‘on musiqalarini yaxshi idroklaganini sezishimiz mumkin va bu albatta asarni turli bezaklar bilan ifodalaydi. SHuning uchun allani ijro etish uchun avvalo xonanada ovoz ko‘lami talab darajasida bo‘lmog‘I lozim. Yumshoq, mayin ovozda musiqa ijrochiligining glissando uslubiga xos pardalarni sirg‘altirib ijro etish bu asarga xos ijro bo‘ladi. Xonandalar asarni ijro etishda bu uslubni o‘zlashtirib, shunga xos ohangda ijro etsalar maqsadga muvofiq bo‘ladi.

6. **“Alla”.** Kompozitor Ikrom Akbarov asari (Xor va yakka ovoz uchun).

Ikrom Akbarov o‘zbek kompozitorlik ijodiyotida alohida o‘rin tutgan mohir kompozitorlardan biridir. Uning ijodida musiqa ijodiyotining barcha professional janrlari yorqin o‘zini namoyon etgan. Opera, simfonik, kamer, vokal va cholg‘u musiqalari o‘zining mukammalliligi bilan ajralib turadi.

Kompozitorning estrada, akademik xonandalik uchun yaratgan romanslari va qo‘shiqlari xalqimiz tomonidan doimo ardoqlanib kelinadi. CHunki, uning asarlari o‘zbekona lutf, ohang, o‘zbekona munosabat bilan uyg‘un holatda bo‘lganligini va unda professionallik jihatlarini mukammalligini ko‘rishimiz mumkin. Kompozitorning “Alla” asari ham ana shunday xislatlar bilan sug‘orilgan namunalardan biridir. Faqat uning mavzui ko‘proq onalar mehnati, xalqimizning  kundalik mashg‘ulotlari bilan hamohangdir. Uning so‘z matnlarida ham buni ko‘rishimiz mumkin. Mirmuhsin so‘zi.

Uxla oppoq bolam, to‘yib-to‘yib uxla,
Yuzingda o‘ynaydi oy bergan shu’la.
Te’angda men sekin aytayin alla.
Allayo-allayo.

Kech kirib oymuma nur sochar bo‘ldi,
Ko‘k yuzi behisob yulduzga to‘ldi.
Dalamizda salqin shabboda yeldi,
Allayo-allayo.

Asarning shakli va ohang tizimi ham professional xarakterga egaligini e’tirof etish lozimdir. CHunki bu asar yakka ovoz va xor jo‘rligi uchun mo‘ljallangan. Asarning diapozoniga nisbatan aytish joizki, uning shakli qo‘shiq janriga xosdir va ijro etish jarayonida ham bunga ehtibor qaratilishi lozimdir. Misol № 18.   Andante.



Bastakor va kompozitorlar allalarining xalq ijodidagi allalaridan farqi, aksariyati keng ko‘lamli, keng diapozonli qo‘shiq yoki ashula shakliga yaqinroq bolganligi bilan alohida ajralib turganligiga guvoh bo‘lamiz. Shuning uchun bu allalarni ko‘proq professional xonandalar ijro etib kelishmoqda.

Ushbu to‘plamga biz barcha onalar uchun qulay bo‘lgan, kichik diapozonli, xalq yo‘llaridagi, ijrosi yengil, o‘zlashtirilishi unchalik mushkul bo‘lmagan allalardan namunalarni o‘quvchi-talabalar e’tiboriga havola etdik. Buning asosiy sababi, xalq allalari musiqa ijodiyotining manbai bo‘lib kelgan. Bu allalar o‘zining ko‘p xususiyatliligi, ko‘pjihatliligi va tabiiyligi bilan qadrlidir. Ular har tomonlama alla ijodiyotining rivojida muhim ahamiyat kasb etishlari bilan ardoqlidir. Xalq allalarining aksariyati farzandlarning sifatlarini ta’rifiga bag‘ishlanganligini kuzatish mumkin. Bu ham bolaning kelajagi uchun ma’nan xizmat qilib kelgan. Bu xislatlar musiqa ijodiyotida yuksaltirilgan. Ya’ni, xalqimizning ma’naviy yuksalishida ahamiyatli deb hisoblangan musiqa san’ati namunalari sifatida bastakorlarimiz va kompozitorlar tomonidan yaratilgan. Risolaga ijro amaliyotida keng ommalashgan, shaklan mukammal va ijro omillari murakkab bo‘lgan mualliflik allalaridan namunalar keltirildi. Ushbu bastakorlik va kompozitorlik amaliyotida yuzaga kelgan allalar zamonaviy musiqa ijodiyotini munosib rivojiga ta’sirini o‘tkazishi begumondir. SHu bois, talabalarning professional ijodga mansub allalarni bilishlari, ularni talqin mezonlarini o‘zlashtirishlari va ijrochilik an’analarini qunt bilan o‘rganishlari zamonaviy xonandalik ta’limida alohida ahamiyatga ega ekanligini qayd etish lozimdir.

Tavsiya etilayotgan allalarning ijrochilik mezonlari rang-barangdir. Har bir xonandani allalar misolida turli shakllarda ijro etishga undash bilan birga, o‘ziga xos ijodiy munosabatlarni shakllantirishga ham katta yo‘llar ochib beradi. Ayniqsa ijodiy jamoalar talqiniga mansub allalarni turli tarkibdagi ansambllar va yakka ijrolar tomonidan ijro etish mumkin. Ta’lim jarayonidagi yangi zamonaviy pedagogik uslublarni keng joriy qilishda ham ijodiy munosabatlar uchun asos bo‘lishi tabiiydir. Zero, asrlar davomida har bir o‘zbek oilasida beshik va belanchaklar boshida kuylab kelingan, xalq amaliy pedagogikasining ta’sirchan vositasi bo‘lgan allalarning bola kamolotida o‘rni beqiyosdir.

Prezidentimiz – mahnaviyatni shakllantiruvchi omillardan eng muhimi sifatida mahnaviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklarni sanab o‘tganlari bejiz emas. Farzandlarning ma’naviy tarbiyasini boyitish va uni milliy ma’naviy qadriyatlarimizning eng sara namunalari vositasida kelajak avlodni tarbiyalab borish har birimizning muqaddas burchimizdir.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Islom Karimov. “Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida”, T., 2000.
2. F.Karomatov. “O‘zbek xalq musiqa merosi”, 1 Qo‘shiq, T., 1978.
3. I.A.Akbarov. “Musiqa lug‘ati”, T., “G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va sanhat nashriyoti”, 1997.
4. M.Yoqubbekova. Alalarda onaning oppoq orzusi. T., 2009.
5. Е.Е.Романовская. Статьи и доклады. Записи музыкального фольклора. Т., 1957.
6. “Guliston” jurnali, T., 2015. № 1.
7. G.Mardonova. Onam aytgan allalar. T., “Tafakkur” 2012.
8. “Moziydan sado” jurnali. 2015, № 1.

## MUSIQIY ASARLARDAN NAMUNALAR

# HOZIR DADANG KELADI

**M.M. ♩.=52-54** O‘zbek xalq kuyi




Hozir dadang keladi,
Olma olib keladi.
Bolajonimga debon,
Qo‘yniga solib keladi.
Allayo-alla.

Naqarot:
Alla, jonim alla,
Hozir uxlashga ‘alla.
Dadang ishdan kelganda-yo,
Oldiga cho‘ib chiqasano.
Allayo-alla.

Tol yog‘ochdan beshigi,
Tal’insa olar dadasi.
Qayrag‘ochdan beshigi,
Qiyqirsa olar dadasi-yo.
Allayo-alla.

Naqarot:
Alla, jonim alla,
Hozir uxlashga ‘alla.
Dadang ishdan kelganda-yo,
Oldiga cho‘ib chiqasano.
Allayo-alla.

# DO‘NDIQQINAM ALLA

**M.M.** 𝅗𝅥**=96-100**

O‘zbek xalq kuyi




Naqarot:
Jon bolam, do‘ndiqqinam, allayo-alla.
Shirin qo‘zichog‘im, allayo-alla.

Osmondagi yulduzimo, alla.
Yum-yum ko‘zing qunduzingo, alla.
Kecha qonib uxlasango, alla.

Quvnoq o‘tar kunduzingo, alla.
Allayo-alla.

Olmalardan beshigiyo, alla.
Olib qo‘ysin otasiyo, alla.
Behilardan beshgiyo, alla.
Belab qo‘ysin buvisiyo, alla.

Naqarot.

Bolaginamning bolasiyo, alla.
Qandak o‘rik donasiyo, alla.
Qanddan ham shirin ekan,
Bolajonimning bolasiyo, alla.

Naqarot.

## TOLICHAVKONIM BOLAM ALLA

**M.M. ♩=66**

O‘zbek xalq allasi






Tol ichidan tanlab olgan
Toli chavkonim bolam.
Gul ichidan hidlab olgan,
Guli rayhonim bolam.

Naqarot:
Allayo-alla,
Hammadan ham sening darding
Saltanat jonim mening,
Allayo-alla.

Olmadan otlar qilay,
Gul bargidan xatlar qilay.
Yora yurgan ko‘chalarni
Termulib yodlar qilay.

Naqarot.

Oy chiqib tuynukka keldi,
Men bolamdin aylanay.
Mening baxtim ovunchog‘im,
Toleimdan o‘rgilay.

Naqarot.

## AYLANAYIN OYDINIM

**M.M. ♩=60-64**

O‘zbek xalq allasi






Aylanayin oydinim,
Qoshi sari yoydinim.
Tal’inganing qo‘limda
Torlan qarchig‘aydayim.

Naqarot:
Alla, jonim, allayo,
Shirin jonim, allayo.

Aylanayin qarog‘im,
Uyda yongan chirig‘im.
Do‘stim ko‘rsa yarashib,
Dushmanimga yarog‘im.

Naqarot.

Qo‘li arslon bilakli,
Botir qo‘lon yurakli.
Yaxshi yomon kunimda
Menga juda kerakli.

Naqarot.

Qora qoshim qunduzin,
Ko‘zi tongda yulduzim.
To‘y hayitlar bo‘lgandayo,
Kiygan to‘ni qirmizim.

## JIGARGO‘SHAM ALLA

**M.M. ♩=48-52**

O‘zbek xalq allasi



Jigargo‘sham orim bolamo, allayo-alla,
Karvonimda norim bolamo, allayo-alla.

Qaldirg‘ochim sorim bolamo, allayo-alla,
Ko‘zginamning nuri bolamo, allayo-alla.

Barchinoyim, ‘ari bolamo, allayo-alla,
Bog‘larimning guli bolamo, allayo-alla.

Jigargo‘sham orim bolamo, allayo-alla,

## GULI LOLAM ALLA

**M.M. ♩=60**

Tojik xalq allasi






Man bachama alla go‘yam, allayo-alla.
Orom megirodmikino, allayo-alla.
Sahar xesta bog‘ ba rafta, allayo-alla.
Guli lolam yofta natonistom, allayo-alla.
Guli lolam nayoftamo, allayo-alla.
Turo tanho namemondamo, allayo-alla.
Guli lolam, bachamo, allayo-alla.
Tanhoyamo yagonamo, allayo-alla.

O‘zbek tilida ham shu ohangda kuylanadi:
Bilmayin bosdim tikonni, allayo-alla.
Tortadurman jabriniyo, allayo-alla.
Ko‘rsam edi, bosmas erdim, allayo-alla.
Tortmas erdim jabriniyo, allayo-alla.

## QUNDUZIM DESAM HAM OZ

S.Zunnunova she’ri
F.Sodiqov musiqasi

M.M. ♩.=52






Qunduzim desam ham oz,
Yulduzim desam ham oz,
Dunyoda nima go‘zal
Bo‘lsa undan o‘zing soz.

Uxla yulduzim allayo,
Orom ol qo‘zim, alla.

Asalmisan, qandmisan,
G‘azal, muhabbatmisan,
Muncha shirinsan o‘zing,
Jonimga payvandmisan.

Uxla yulduzim allayo,
Orom ol qo‘zim, alla.

Oyni olib beraymu,
Gullar terib beraymi,
Atrofingda aylanib,
Shamol kabi yelaymi.

Uxla yulduzim allayo,
Orom ol qo‘zim, alla.

# BAXTIMGA OMON BO‘L

T.Niyoz she’ri
Z.Suyunova musiqasi



Baxtimga omon bo‘l, o‘sib katta bo‘l,
Kunday yorug‘ bo‘lsin umring uzun yo‘l,
Bosgan qadamingdan unib chiqsin gul,
Uxla bolam, uxla jonim, allayo-alla.

Onangning orzusi senda jamuljam,
Elning umidi ham senda jon bolam,
Senga ko‘zin tikkan jumlai olam,
Uxla bolam, uxla jonim, allayo-alla.

Alpomish Temurlar ruhi qo‘llasin,
Ulug‘ ezgu ishlar sori yo‘llasin,
Umring shodon o‘tsin qayg‘u bo‘lmasin,
Uxla bolam, uxla jonim, allayo-alla.

## BOLAMSANU-BOLAMSAN

**M.M. ♩=52-56**

O‘.Rashid she’ri
S.Hayitboyev musiqasi






Bolamsanu-bolamsan, alla.
Mening uchun sen bir jahon olamsan, alla.

Sen tug‘ilding bag‘rim to‘ldi, jonginam alla.
Go‘yo olam menga bo‘ldi, asalim alla.

Intizorlik bilan yetdim senga men, alla.
Dilu jonim sening o‘zing o‘’og‘im, alla.

Umr bo‘yi bo‘lgil mening hamrohim, alla.
Nasib qilgil chiqmasin sira ohim, alla.

## SEN OROM OL QO‘ZIM

M.Mirsaidova she’ri
A.Ismoilov musiqasi




To‘ lin oy - dek to‘l - di - rib bag‘-rim op - po - g‘im, ho
Ko‘ng-lim ka - bi o‘s il - dam, gul - la - sin bo - g‘im,
Am - mo ho - zir o - rom ol, qal - bim - qun - du - zim,
al - la - yo, al - la, al - la - yo, al - la,
Ansambl
me- ning yul - du - zim.
Xi - yol jil - ma - ya - san uy - qung a - ra - lash,
Er - tak - da - gi ka - bi bax - tu g‘am ta - lash,
Tush - la - ring qu- von - chin men - ga ham u - lash,
Sen bi - lan nu - raf - shon ke - cha kun - du - zim,
Sen o - rom ol qo‘- zim, bax- tim, yul - du - zim,




Horg‘in ko‘zlarimga yuzing bosaman,
Xohlamasam hamki uyqung buzaman,
Ko‘kda yulduzlardan marjon tuzaman,
Sen orom ol qo‘zim,mening yulduzim,
Allayo-alla.

Xiyol jilmayasan uyqung aralash,
Ertakdagi kabi baxtu-g‘am talosh,
Tushlaring quvonchin menga ham ulash,
Sen bilan nurafshon kecha kunduzim,
Allayo-alla.

Tanangda jon o‘zim asal do‘mbog‘im,
To‘lin oydek to‘ldirib bag‘rim o‘’og‘im,
Ko‘nglim kabi o‘s ildam, gullasin bog‘im,
Ammo hozir orom ol, qalbim qunduzim,
Allayo-alla.

Mayin nafasingdan erib ketaman,
Shirin azobingda tongni kutaman,
Seni o‘ylab o‘zligim unutaman,
Sen orom ol qo‘zim, umid yulduzim,
Allayo-alla.

# ALLA AYTAY

**M.M. ♩=104-108**

K.Mansurov musiqasi




sa - o - da - tim - - bax - tim
o‘ - zing, ko‘ - rar ko‘ - zim,
al - la.
Me - h(i)r to‘ - la ko‘z - la - ring -
- da shod - lik nu - ri,
al - la (yo),
is - tiq - bo - ling por - loq
se - ning, shi - rin so‘ - zim,
al - la.
Yuz - la -




Alla aytay jonim bolam, quloq solgin, alla,
Shirin allam tinglab asta uxlab qolgin, alla.

Alla aytay jonim bolam, shirin qo‘zim, alla,
Sen quvonchim, iftixorim, ko‘rar ko‘zim, alla.

Tinch kechaning lazzatidan bahramand bo‘l, alla,
Saodatim-baxtim o‘zing, ko‘rar ko‘zim, alla.

Mehr to‘la ko‘zlaringda shodlik nuri, alla,
Istiqboling ‘orloq sening, shirin so‘zim, alla.

Yuzlaringda nur ‘orlaydi, jajjiginam, alla,
Baxtiyor bo‘l, o‘rgilayin sendan o‘zim, alla.

# BOBOLARING ULUG‘ SIYMO

B.Umedjonov musiqasi
H.Muhammad she’ri

𝄋 **O‘rta tezlikda**




Solo
S.
A.
T.
B.
I - bn Si - no, bo - lam, al - la, Mo - mo - la - ring
Ze - bu - ni - so, bo - lam, al - la, No - di - ra - dek
aq - li ra - so, bo - lam, al - la.
mf
al - la bo - lam, al - la,
pp
al - la bo - lam, al - la.


Solo
S.
A.
T.
B.
qo‘-zi - cho-g‘im, bo-lam, al - la.
al - la-yo,
mf
p
al - la-yo, qo‘ zi - cho-g‘im, bo-lam, al-la - la.
Tugallash uchun
al - la-yo, al - la-yo,
al - la.

Bobolaring ulug‘ siymo, bolam, alla,
Al-Xorazmiy, ibn Sino, bolam, alla,
Momolaring Zebuniso, bolam, alla,
Nodiradek aqli raso, bolam, alla.

Temur kabi sarkarda bo‘l, bolam, alla,
Bobur kabi aqlga to‘l, bolam, alla,
Navoiydek shoir bo‘lgin, bolam, alla,
Al’omishdek kuchga to‘lgin, bolam, alla.

Avlodlaring buyuk bo‘lgan, bolam, alla,
El-elatga suyuk bo‘lgan, bolam, alla,
Sen ham elning dilbandisan, bolam, alla,
Ona yerning farzandisan, bolam, alla.

## DUNYODAGI BAXTIM BOLAM

B.Lutfullayev musiqasi
B.Umedjonov xor uchun qayta ishlagan

**Og‘ir va nozik**




Solo
S.
A.
T.
B.
jo - nim bo lam, baxt - li bo - lam, al - la - yo, al - la.
Ti - lab - ti - lab top - gan bo - lam,
M al - la, al - la, al - la.
Dun - yo - da - gi bax - tim o' - zing, al - la - yo, al - la.
O
Ha - yo - tim ham bo - rim o' zing, al - la - yo, al - la.
Jo - nim bo - lam, baxt - li bo - lam,
M al - la, al - la, al - la.
al - la - yo, al - la, al - la - yo, al - la.
O al - la, O


Solo
S.
A.
T.
B.
Qo'y-nim - da - gi tu - mo - rim, al - la - yo, al - la.
Dard - la - rim - ga dar - mo - nim,
O
O
f
mf
p
Bag'-rim - da - gi xu - mo - rim, al - la - yo, al - la.
Di - lim - da - gi du - to - rim,
mf
To' - kil - ma - sin ko'z yo - shing, al - la - yo, al - la,
M
O - mon bo'l - sin bu bo - shing, al - la - yo, al - la.
al - la, al - la, al - la.




Jonim bolam, baxtli bolam, allayo-alla.
Tilab-tilab to‘gan bolam, allayo-alla.

Dunyodagi baxtim o‘zing, allayo-alla.
Hayotim ham boring o‘zim, allayo-alla.
Jonim bolam, baxtli bolam, allayo-alla.

Qo‘ynimdagi tumorim, allayo-alla.
Bag‘rimdagi xumorim, allayo-alla.

Dardlarimga darmonim, allayo-alla.
Dilimdagi dutorim, allayo-alla.

To‘kilmasin ko‘z yoshing, allayo-alla.
Omon bo‘lsin bu boshing, allayo-alla.

# ONA TILAGI

M.Turobova she'ri
Q.Mamirov musiqasili




Ja- vo - hir- day ko‘ char di- lim - dan,
u- fu - ra- di go‘ - yo - ki ko‘k- lam.
Al- la, al- la o- na ti- la - gi o
Shu al- la- da o - lam yu- ra - gi.


go‘-yo qa- not bo‘-la - di pay- do,
uch- gum o- lis qush- day ha- vo - da.
Go‘ zal - lik- ka a- zal - dan shay- do
Ko‘n- gil ku- yi yang - rar na- vo - da.


Al - la, al - la o - na ti - la - gi o...
Shu al - la - da o - lam yu - ra - gi.
Go - hi kun - duz,
go - hi - da tun - lar, go - hi oq - shom,


goh sa- har pal- la.
Far- zan- dim- ga
bax- shi - da kun- lar
ra- von - ra- von
o- qa - di al - la.
Al - la, al - la
o - na ti - la - gi
o...
Shu al - la - da




Shirin alla uchar tilimdan,
Oppog'imni tebratganimda,
Javohirday ko'char dilimdan,
Ufuradi go'yoki ko'klam.

Naqarot:
Alla, alla, ona tilagi,
Shu allada olam yuragi.

Go'yo qanot bo'ladi 'aydo,
Uchgum olis, qushday havoda,
Go'zallikka azaldan shaydo,
Ko'ngil kuyi yangrar navoda.

Naqarot.

Gohi kunduz, gohida tunlar,
Gohi oqshom, goh sahar 'alla.
Farzandimga baxshida kunlar,
Ravon-ravon oqadi, alla,

Naqarot.

# ALLA

**M.M. ♩=44** O‘zbek xalq allasi




Alla aytay men, senga alla,
Sen olgin allamdan orom, alla.
Joningdan onang o‘rgulsin, bolam, seniyo, alla,
Toshxonim bolam, alla.

Gul ichidan hidlab olgan
Guli rayhonim meniyo, alla.
Soy ichidan saylab olgan
Sadda rayhonim meniyo, alla.

Suv boshida o‘ltirib
Suvni loyqatgan bolam,
Gohi o‘ynab kuldirib,
Gohi yig‘latgan bolam.

# ALLA

Mirmuhsin she'ri
I.Akbarov musiqasi




oy ber - gan shu' - la. Te - pang - da men se - kin
ay - ta - yin al - la, ay - ta - yin al - la.
Xor
Al - la - yo - - - al - la - yo,
mp
m.g.
al - - - la - yo - - - al - - - la - yo.
mf


Solo
Gul ka - bi o - chi-
lib yash - na - gan cho - g‘im, sen me - ning i -
shon - gan cha - ma - nim, bo - g‘im, mehr - ga to‘ - liq -
Xor
dir is - siq qu - cho - g‘im, al - - - la-
m.g.


yo - - al - - la - yo, al - la -
m.g.
yo - - - al - - la - yo.
f
Solo
O - nam yal - qov de - ma, kol - xoz dong - do -
ri, O - nang te - rim - chi - lar


ich - ra il - g'o - ri, Tong ot - sa ko' -
ra - san, lim - lim qa - no - ri,
lim - lim qa - no - ri...
Ux - la op - poq bo- lam, to' - yib - to' yib ux-


1.
2.
la. la. Yu - zing - da o'y - nay - di
oy ber - gan shu' - la, Te - pang - da men se - kin
ay - ta - yin al - la, ay - ta - yin al - la.
Xor
Al - la - yo - - - al - la - yo,
mp
m.g.




Uxla oppoq bolam, to‘yib-to‘yib uxla,
Yuzingda o‘ynaydi oy bergan shu’la.
Te’angda men sekin aytayin alla.
Allayo-allayo.

Kech kirib oymuma nur sochar bo‘ldi,
Ko‘k yuzi behisob yulduzga to‘ldi.
Dalamizda salqin shabboda yeldi,
Allayo-allayo.

Gul kabi ochilib yashnagan chog‘im,
Sen mening ishongan chamanim, bog‘im,
Mehrga to‘liqdir issiq quchog‘im,
Allayo-allayo.

Uxlagin, ha demay ko‘kda oy botar,
‘axtazor ustida o‘’oq tong otar.
Terimchilar kuyi bizni uyg‘otar,
Allayo-allayo.

# ALLA

**M.M. ♩=????**

Z.Suyunova musiqasi
P.Medyulyanova ishlov bergan




Voice
Vln. I
Vln. II
Vla.
Vc.
Cb.
Bo‘ yoq-la-ri ji-lo - li, Be- shik la-ri til-lo - li, Bo‘ yoq-la-ri
ji-lo - li, Bo- lam kul-gu - si bol - dek, Um-ring bo‘l- sin chi- nor - dek.
unis.


B
Voice
Ux-la bo-lam, al - la-yo, Gu-li - lo-lam, al - la-yo, Ux-la
Vln. I
mp
Vln. II
mp
Vla.
mp
Vc.
mp
Cb.
Voice
bo-lam, al - la-yo, Gu-li - lo-lam, al- la - yo, al - la.
Vln. I
Vln. II
Vla.
Vc.
Cb.
mp


C
Voice
Oy-dan ta-qay oy-bal - doq,
Vln. I
Vln. II
Vla.
Vc.
Cb.
Voice
Yul-duz-lar-dan sha-qil - doq,
Oy-dan ta-qay oy-bal - doq,
Vln. I
Vln. II
Vla.
Vc.
Cb.


Voice
Vln. I
Vln. II
Vla.
Vc.
Cb.
Yul-duz-lar-dan sha-qil - doq, Qu- yosh - dan sham yoqa - yin,
D
Ay - la- nib, o‘r - gi- lo - yi- no. Ux-la bo- lam, al -
pizz.


Voice
Vln. I
Vln. II
Vla.
Vc.
Cb.
- la - yo, Gu - li - lo - lam, al - la - yo, al - la.
E
div.
mf


Voice
Vln. I
Vln. II
Vla.
Vc.
Cb.
Ba-hor-da boy-
-che-cha - gim, Qiz-g'al-doq gul - che-cha - gi-mo,


F
Voice
Go‘-yo-ki ray - ho - nim - san, Bor-li-g‘im,ja - ho
col legno tutti
Vln. I
Vln. II
Vla.
Vc.
Cb.
Voice
- nim - sa - no. Ux-la bo - lam, al - la - yo, Gu - li
arco tutti
Vln. I
Vln. II
Vla.
Vc.
Cb.


G
Voice
lo- lam, al- la - yo, Ux - la bo- lam, al - la - yo, Gu - li
Vln. I
Vln. II
Vla.
Vc.
Cb.
p
p
Voice
lo - lam, al - la - yo, al - la. Al - la - yo...
Vln. I
Vln. II
Vla.
Vc.
Cb.
pp
pp
pp




Beshiklari tilloli,
Bo‘yoqlari jiloli,
Bolam kulgusi boldek,
Umring bo‘lsin chinordek.

Naqarot:
Uxla bolam, allayo,
Guli lolam, allayo.

Oydan taqay oybaldoq,
Yulduzlardan shaqildoq,
Quyoshdan sham yoqayin,
Aylanib, o‘rgiloyin.

Naqarot.

Bahorda boychechagim,
Qizg‘aldoq gulchechagim,
Go‘yoki rayhonimsan,
Borlig‘im, jahonimsan.

Naqarot.

# ROMANS
## (Alla)

R.Ma'diyev she'ri
M.Bafoyev musiqasi




Ol - tin bo'l - sin os - to - na - si, al - la - yo - al - la, O
Cha - raq - la - sin ko - sho - na - si, al - la - yo - al - la.
mf
O - qar suv - - - lar
sha - lo - la - si, al - la - yo - - - - al -
8va
mf


la. Or - zu - la - rim
sha - ba - da - si, al - la - yo - - - al -
la. Al - la - yo - - al -
f
gliss.
8va
la. O al - la - yo - - al -
gliss.
8va


la.
8va
8va
8va
mf
Be - shi - gi - ning bek bo - la - si,
mf
al - la - yo - - - al - la.
O - ta - si - ning mard bo - la - - - - si,


al - la - yo - - - al - la.
f
gliss.
Al - la - yo - - - al - la.
O
8va
gliss.
al - la - yo - - al - la.
8va
mp
Bax-tim o' - zing, tax-tim o' - zing,
8va
mp


p
al - la - yo - al - la, O. Yo - rug‘ bo‘l - sin shir - mon yu - zing,
8va
p
al - la - yo - al - la, al - la - yo - al - la. O
al - la - yo - al - la, al - la, al - la,
p
Ped.
al - la - yo - al - la.
8va
8va

Muhabbatim nishonasi, allayo-alla.
Porlab tursin peshonasi, allayo-alla.
Oltin bo‘lsin ostonasi, allayo-alla.
Charaqlasin koshonasi, allayo-alla.

Oqar suvlar shalolasi, allayo-alla.
Orzularim shabadasi, allayo-alla.
Beshigining bek bolasi, allayo-alla.
Otasining mard bolasi, allayo-alla.

Baxtim o‘zing, taxtim o‘zing, allayo-alla.
Yorug‘ bo‘lsin shirmon yuzing, allayo-alla.

## MUNDARIJA

Kirish........................................................................................................ 3
Xalq allalari................................................................................................. 5
Bastakorlar ijodiga mansub allalar.................................................................. 6
Ijodiy jamoalar bilan aytilgan allalar
(Alla kompozitorlar ijodida) ......................................................................... 7
Alla ijrochiligi ............................................................................................... 8
Xalq alla ijrochiligi ...................................................................................... 10
Bastakorlar yaratgan allalar ijrochiligi .......................................................... 18
Kompozitorlar yaratgan allalar....................................................................… 26
Qo‘llanilgan adabiyotlar ro‘yxati .................................................................. 36

Musiqiy asarlardan namunalar
Hozir dadang keladi ..................................................................................... 37
Do‘ndiqqinam alla ........................................................................................ 38
Tolichavkonim bolam alla ............................................................................ 39
Aylanoyin oydinim....................................................................................... 41
Jigargo‘sham alla ......................................................................................... 43
Gulilolam alla .............................................................................................. 44
Qunduzim desam ham oz .............................................................................. 45
Baxtimga bo‘l omon..................................................................................... 47
Bolam sanu – bolam san ............................................................................... 48
Sen orom ol qo‘zim ....................................................................................... 50
Alla aytay ..................................................................................................... 53
Bobolaring ulug‘ siymo ................................................................................ 56
Dunyodagi baxtim bolam ............................................................................... 59
Ona tilagi ..................................................................................................... 62
Alla (xalq ijodiyotidan)………………………..……………………….... 69
Alla (Ik.Akbarov musiqasi)…..…………………………………………… 70
Alla (Z.Suyunova musiqasi)………………………………………………. 77
Romans (alla) …………………………………………………………... 87

**ZAMIRA SUYUNOVA**

# AN'ANAVIY XONANDALIK

***(Alla – mehr qo'shig'i)***

*O'quv-uslubiy qo'llanma*

Texnik muharrir *M.Ahmedova*
Musahhih *F.Abdiyeva*
Kompyuterda tayyorlovchi *B.Ashurov*

2016-yil 27-oktabrda bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60 x 84 $^{1}/_{8}$.
Shartli b.t. 12,0. Nashr b.t. 11,5. Adadi 350 nusxa.

«Kristi Art» MChJ da chop etildi.
Toshkent, Chilonzor-2/3.

**CD dagi asarlar ro‘yhati**

1. Do‘ndiqqinam, alla. Zamira Suyunova.
2. Bolamsan-u, bolamsan, alla. Habiba Ohunova.
3. Alla bolam.
4. Tolichavkonim, alla. Zamira Suyunova.
5. Alla (gulilolam).
6. Bilmain bosdim, alla.
7. Kunduzim desam ham oz. Zamira Suyunova.
8. Baxtimga bo‘l omon. Zamira Suyunova.
9. Alla.
10. Sen orom ol qo‘zim. Z.Suyunova.
11. Alla aytay. Habiba Ohunova.
12. Bobolaring ulug‘ siymo. Zamira Suyunova.
13. Alla.
14. Dunyodagi baxtim bolam. O.Madraximova.
15. Alla.
16. Ona tilagi. D.Muxamedova.
17. Beshiklari tilloli. Zamira Suyunova.
18. Alla.
19. Kechalar ertakdagidek (S.Mamatqulova)
20. Xayu-xay.
21. Alla.
22. Alla.
23. Alla.
24. Alla.
25. Alla ayting ayollar. Zamira Suyunova.
26. Onalar kuylaganda.
27. Afg‘on ona allasi. Zamira Suyunova.
28. Alla.
29. Ona allasi.
30. Alla.
31. Jigargo‘sham, alla.
32. Vatandosh ona allasi.